

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

fakultet dekani

_____B.Abdushukurov

“ _____ ” _____ 2018-y

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi IV kurs 404-guruh talabasi **Jo‘rayeva Laylo**
**O‘ktamali qizining “Akademik litsey 2-kursida “Yordamchi so‘zlar va ularning uslubiy
xususiyatlari” mavzusini o‘qitishda innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalanish”**
mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

_____S.Muhamedova,

f.f.d., professor

Axborot va zamonaviy

pedagogik texnologiyalar kafedrası

Taqrizchi:

_____N.Ahmedova,

f.f.n., dotsent

O‘zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti

Taqrizchi:

_____D.Alimjonova,

Yakkasaroy tumanidagi 73-sonli umumiy o‘rta ta’lim

maktabi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Axborot va zamonaviy

pedagogik texnologiyalar kafedra mudiri

f.f.d.,prof._____S.Muhamedova

“ _____ ” _____ 2018-y.

TOSHKENT-2018

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA’LIMIDA QO‘LLANILADIGAN AXBOROT TEXNOLOGIYALARI	
1.1. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida elektron resurslardan foydalanish.....	13
1.2. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida internetdan foydalanish.....	26
II BOB. AKADEMIK LITSEY 2-KURSIDA “YORDAMCHI SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI” MAVZUSINI O‘QITISHDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	
2.1.35-darsni o‘tishda qo‘llaniladigan axborot texnologiyalari.....	33
2.2. 36-darsni o‘tishda qo‘llaniladigan axborot texnologiyalari.....	43
2.3. 37-darsni o‘tishda qo‘llaniladigan axborot texnologiyalari.....	54
XULOSA	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	73

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim-tarbiya sohasida ulkan odimlarni boshlab berdi. Bu esa har bir pedagog zimmasiga quyidagi asosiy talablarni – ta'lim berish, tarbiyalay olish va ta'lim oluvchining bilimlarini xolisona baholay olish, qolaversa, nazorat qilish mahoratini rivojlantirish vazifasini yuklaydi.

Istiqlol tufayli ijtimoiy hayotda bo'lgani kabi ma'naviy hayotda ham chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, boy adabiyotimizning noyob namunalarini qaytadan, yangi adabiy-estetik talablar asosida tahlil etishga keng imkoniyatlar yaratildi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek “Ilm-u ma'rifat e'zozlangan mamlakatda hech kim urush haqida bosh qotirmaydi. Chunki ilm-u ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilm-u ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi.”¹

Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olishi, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.

Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi.² Shu sababli ham ta'lim jarayoni o'qituvchi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Yangi asr o'qituvchisi yuqoridagilarni bajarishi hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirish xislatlariga ega bo'lishi kerak. U o'z faoliyatida qobiliyatli, zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi, dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini keng nuqtai nazarda

¹ Karimov I. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. –B 57.

² Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B 27.

anglash, qolaversa, kompyuter va boshqa o'qitish texnik vositalaridan ta'lim jarayonida foydalana olishi lozim. Shuningdek, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni mukammal egallashi, ma'naviy barkamol, diniy ilmlardan ham xabardor, e'tiqodli, fuqarolik va vatanparvarlik burchini his qilishi, asosiysi, milliy mafkura hamda bugungi iqtisodiy islohotlar mohiyatini to'la tushunib yetgan bo'lishi lozim.

Mamlakatimizda bugungi kunda ta'lim sohasida ulkan imkoniyatlar yaratilgan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov istiqlolning dastlabki yillaridanoq ta'lim sohasini yaxshilash, o'sib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta'lim berish masalasiga jiddiy e'tibor qaratdilar. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bu sohani rivojlantirish uchun "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonun qabul qildilar. 2017-2021-yillar uchun ishlab chiqilgan "Harakatlar strategiyasi" da ham maxsus ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga alohida bo'lim ajratildi:

Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

Ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;³

XXI asr – texnika va texnologiya asri. Bu nom bejizga berilmadi. Atrof-muhitda sodir bo'ladigan hodisalar uni o'rganishga bo'lgan qiziqishni yanada orttirdi. Bu qiziqish ortidan ilm-fan sohasida misli ko'rilmagan kashfiyotlar paydo bo'ldi va paydo bo'lmoqda. Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilmoqda. Shu o'rinda, bu yangiliklar xususan, turli xil gadjetlar, qurilma-yu moslamalar inson hayotining ajralmas bo'lagiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ulardan unumli foydalanish dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Bu borada

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi // Xalq so'zi. 2017-yil 8-fevral 28-son.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tishni o‘rinli deb bilamiz: «Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta‘lim va tarbiya olishiga bog‘liq»⁴. Darhaqiqat, farovon kelajak poydevori hozirda unib-o‘sib kelayotgan yoshlar hisoblanadi. Shu sababli, ularning yuqori bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib voyaga yetmoqlari muhim omildir.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan davrda zamonaviy bilimlarga ega yosh avlodni tarbiyalash innovatsion axborot texnologiyalari bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli ham biz, dastlab, bu ko‘nikmani ta‘lim dargohlarida o‘rgatishimiz lozim. Toki o‘sib kelayotgan yosh avlod zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan oqilona foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lsin. Bu vositalar o‘quvchida turli bekorchi g‘oyalarni targ‘ib qilishga xizmat qilmasin. Bundan tashqari ularga zamonaviy bilimlar berishga, zamonaviy innovatsion texnologiyalari vositasidan foydalanish, o‘rgatish va o‘rganish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi. Hozirda vazirlik tomonidan ta‘lim sohasida innovatsiyalarni rivojlantirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbek tili va adabiyoti ta‘limida ham innovatsion texnologiyalar o‘rni va ahamiyati ham oshirilmoqda. Bu til va adabiyot ta‘limi samaradorligini oshirish uchun xizmat qilmoqda.

Til ta‘limida yordamchi so‘z va yordamchi qo‘shimcha shakllar, aniqrog‘i yordamchi birliklar muayyan bir hodisa sanalib, ona tilini o‘qitishda o‘ziga xos

⁴ Karimov I. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. –B 56.

o‘ringa ega. Chunki nutqimiz boyligi, sayqalligi, silliqliqi, muxtasarligi, uslubi ravonligi bevosita yordamchilar (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama)ga ham bog‘liq. Yordamchi birliklar ona tili ta‘limi tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘rganiladi. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimining quyi bosqichida mazkur hodisa haqida dastlabki ma‘lumot berilsa, yuqori sinflarda bu hodisa xususida nisbatan kengroq ma‘lumot mavjudligiga guvoh bo‘lamiz. Yordamchi so‘zlarni turli usullarda o‘tish, bu hodisani o‘quvchi ongi, shuuriga singdirish, vaziyat talabi bilan nutqida keng qo‘llay olishiga erishish o‘qituvchidan yuqori darajadagi mahoratni talab etadi. Yordamchi birliklarning grammatik tabiati bo‘yicha aytilgan fikrlar yetarlicha mavjud. Biroq ularni o‘rgatish, yordamchi so‘zlarni o‘tish metodikasiga oid tadqiqotlar oz. Yordamchi so‘zlarni o‘qitishni yanada chuqurlashtirish, bu jarayonda zamonaviy innovatsion axborot texnologiya vositalaridan foydalanish biz tanlagan mavzuning dolzabligini ko‘rsatadi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha yuqorida bayon etganimizdek, yordamchi birliklarning grammatik tabiati, lisoniy xususiyatlari bo‘yicha O.Azizov⁵, A.Nurmonov, N.Mahmudov⁶, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedova⁷, Sh.Shahobiddinova, Sh.Iskandarova, D.Nabiyeva⁸, Sh.Rahmatullayev⁹, U.Tursunov, J.Muxtorov¹⁰, Sh.Shoabdurahmonov¹¹, E.Qilichov¹², F.Kamol¹³, G‘.A.Abdurahmonov¹⁴ va boshqalarning tadqiqotlarida, shu bilan birga, til hodisalarini ta‘lim tizimida o‘rgatish

⁵ Azizov O. Tилшуносликка кириш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

⁶ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

⁷ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili 7-sinf. –Toshkent: Ma‘naviyat. 2005.

⁸ Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Тошкент: Шарк, 2001.

⁹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili (darslik). –Toshkent: Universitet, 2006.

¹⁰ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлири филология факультетлари талабалари учун дарслик. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

¹¹ Шоабдурахмонов Ш ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтларининг филология факультетлари учун дарслик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

¹² Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бакалавр – ўзбек филологияси ихтисослиги учун қўлланма.– Бухоро: 2005.

¹³ Ҳозирги замон ўзбек адабий тили. Ф.Камол тахрири остида. –Тошкент: Фан, 1957.

¹⁴ Ҳозирги ўзбек адабий тили. Фонетика, лексикология, морфология. Ф.А. Абдурахмоновнинг умумий тахрири остида. –Тошкент: Фан, 1966.

usullariga qaratilgan o'qituvchilar uchun chiqarilgan N.Bekova¹⁵, A.G'ulomov¹⁶, B.Qobilovalarning¹⁷ metodik qo'llanmalari, S.Majidova¹⁸, D.Muqumova¹⁹, D.Rahmonova²⁰, D.Yo'ldashevalarning²¹ maqolalarida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari ta'limda, xususan, o'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha S.Adilova²², Sh.Yusupova²³, N.Ahmedova²⁴, M.Abdullayeva²⁵, U.Begimqulova²⁶, A.Abduqodirov, A.Pardayev²⁷, M.Ochilov²⁸ va boshqalarning tadqiqot ishlarida va o'quv qo'llanmalarida ko'rishimiz mumkin. Biroq yordamchi birliklarni akademik litsey ta'limida o'qitish va o'rgatishga qaratilgan maxsus tadqiqot amalga oshirilgan emas. Bizning bitiruv malakaviy ishimiz shu yo'nalishdagi ishlardan biri sanaladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqot ishining asosiy maqsadi – akademik litsey o'zbek tili va adabiyoti ta'limi jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tadbiq qilish orqali yordamchi so'zlar mavzusini o'quvchilarga yetkazib berish, ish hamda ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga oid ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini o'rganish;
- samaradorlikning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;

¹⁵ Bekova N. Interfaol usullar- dars samaradorligining asosiy omili. Usuliy qo'llanma. –Toshkent: Muharrir, 2010.

¹⁶ Гуломов А. Она тили дарсларида ўқув-билув фаолиятини активлаштириш. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Тошкент: Ўқитувчи, 1987.

¹⁷ Гуломов А. Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулоти. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

¹⁸ Majidova S. Yordamchi so'zlar mavzusini mustahkamlashda Alisher Navoiy asarlaridan foydalanish // Til va adabiyot ta'limi. 2015-yil, 1-son. –B 16-18.

¹⁹ Muqumova D. Ko'makchilar mavzusini mustahkamlash // Til va adabiyot ta'limi. 2016-yil, 2-son. –B 25-27.

²⁰ Rahmonova D. Ko'makchilarning ma'no turlari va ularning qo'llanilishi // Til va adabiyot ta'limi. 2015-yil, 12-son. – B 10-12.

²¹ Yo'ldosheva D. Yordamchi so'zlar mavzusini o'rganish // Til va adabiyot ta'limi. 2012-yil, 12-son. –B 14-18.

²² Adilova S. O'zbek tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –Toshkent: TDPU, 2006.

²³ Yusupova Sh., G'oziyeva O. Ona tili o'qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – Toshkent: Bayoz, 2013.

²⁴ Ahmedova N. O'zbek tili o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. – Toshkent: Navro'z, 2016.

²⁵ Abdullayeva M. O'zbek tili va adabiyotini o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. – Toshkent: ToshDO'TAU 2017.

²⁶ Begimqulova U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan. 2007.

²⁷ Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2009.

²⁸ Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2010.

- o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim faoliyatiga tadbiiq qilish;
- o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini akademik litsey faoliyatida qo‘llash samaradorligini o‘rganish, tahlil qilish;
 - o‘zbek tili va adabiyoti ta’limida masofaviy ta’lim tizimini o‘rganish;
 - zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tadbiiq qilish orqali o‘zbek tili va adabiyoti ta’limi jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga oid ilmiy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;
 - o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha innovatsion g‘oyalari berish;
 - yordamchi so‘zlarning akademik litsey dastur va darsliklardagi ifodasini kuzatish, ularni o‘tish borasida tavsiyalar berish;
 - o‘zbek tilida ko‘makchilarning lingvistik tabiatini kuzatish va ularni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;
 - o‘zbek tilida bog‘lovchilarning tabiatini yoritish, mavzuni o‘quvchilarga yetkazib berishda axborot texnologiyalarini qo‘llash;
 - o‘zbek tilida yuklamalarning lisoniy tabiati va matndagi ma’no imkoniyatlarini o‘rganish, darsni o‘quvchilarga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositasida yetkazib berish;

Tadqiqotning obyekti va predmeti. O‘zbekistonda uzliksiz ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, shu asosda ta’lim sifatini jahon andozasiga yetkazish eng dolzarb vazifaga aylandi. “Har qaysi millat yoki xalqning ma’naviyati, uning bugungi hayoti va taqdirini o‘shib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda, shakshubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”²⁹ – degan edi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Bugungi kunda ona tilini o‘rganishdan ko‘zlangan

²⁹ Karimov I. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kush. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B 176.

maqsad nutqning, imloning yuqori darajasiga erishishdir. Hozirgi kunda ona tili ta'limi bo'yicha Davlat standartiga ko'ra uch omilga erishish ko'zda tutilmoqda:

1. Ijodiylik;

2. Mustaqil fikrlash;

3. Fikr mahsulini nutqiy vaziyatga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.³⁰

Yordamchi so'zlar tilda gapdagi bo'laklarni yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'rtasidagi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular sintaktik aloqaning yuzaga chiqishida muhim vosita bo'lib, mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmagan, gapda tenglik yoki ergashtiruvchilik munosabatini ifodalay oladigan va unga qo'shimcha ma'no yuklay oladigan morfologik birlikdir.³¹

O'zbek tilshunosligida tadqiq etilgan yordamchi so'zlar hisoblanmish ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar ishning obyeksi hisoblanadi. Shu til birliklarining akademik litsey II bosqichi ta'limida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitilishi ishning predmeti sanaladi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Ishda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevlarning ma'naviyat, ma'rifat, milliy va umumbashariy qadriyatlar tog'risidagi fikr-mulohazalari, milliy til va madaniyatning rivojlanish tarixi, taraqqiyot yo'llari haqidagi qarashlari hamda til va uslub mavzusida qilingan tadqiqotlar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, analiz va sintez, mantiqiylik kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu tadqiqotda yordamchi birliklar tadqiq etildi, ularni o'qitish xususida fikrlar bayon etildi:

- yordamchi birliklarning manbalardagi ifodasi kuzatildi va munosabat bildirildi;

³⁰ Йўлдошева Д. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари. –Тошкент: Фан, 2006. –Б 83.

³¹ Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Тошкент: Шарқ, 2001.–Б 164.

- yordamchi birliklarni akademik litsey ta'limi bosqichidagi ifodasi o'rganiladi, uning yutuq va kamchiliklariga munosabat bildiriladi;

- yordamchi birliklarni akademik litsey ta'limi bosqichida o'tish haqida mulohaza va takliflar aytiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kuchaygan. Ta'limning samaradorligini oshirish o'z o'rnida yoshlarning ta'lim markazida bo'lishini va ularning mustaqil bilim olishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu yo'lda ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallagan kadrlar talab etilishi bilan bir qatorda ularning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan mutaxassislar zarur. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish keng yo'lga qo'yilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. «Eshitganimni yoddan chiqaraman, ko'rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman», – buyuk faylasuf Konfutsiyga tegishli bu hikmatli so'z yuqoridagi fikrlarimizga dalildir. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirilgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari – interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rnini va ahamiyati

beqiyosdir.³² Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Bu o'rinda, innovatsion texnologiyalar takomillashuvining yoshlar ongiga turli ta'sirlari mavjud. Buning isbotini boshqa rivojlangan chet el mamlakatlari tajribasida ko'rishimiz mumkin.

Malakaviy ishda yoritilgan mavzuga oid fikrlarimizdan o'zbek tili va adabiyotini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishda, o'zbek tili va adabiyotini o'qitishda elektron resurslardan va internet materiallaridan foydalanishda, yordamchi so'zlarning akademik litsey ta'limida o'qitilishida foydalanish mumkin. Tadqiqot davomida bayon etilgan xulosalar o'zbek tilini o'qitish sifatini oshirishda, yordamchi so'zlar mavzusiga doir dars ishlanmalarini yaratishda, guruhdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida kerakli o'rinlari mavjud.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi tuzilishiga ko'ra kirish, II bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

³² Begimqulova U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. –B 59.

I BOB. O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA’LIMIDA QO‘LLANILADIGAN AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

1.1. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida elektron resurslardan foydalanish

Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari to‘g‘risida fikr yuritishdan oldin axborot, kommunikatsiya, texnologiya so‘zlarining tub mohiyati haqida izoh berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Axborot - manbalari va taqdim etilish shaklidan qat’i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlardir.³³

Axborot keng qamrovli tushuncha bo‘lib, unga quyidagicha ta’riflar ham berish mumkin:

Axborot – ma’lum xos matnda aniq ma’noga ega tushunchalarni ichiga olgan dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi obyektlar haqidagi bilimlar majmui;³⁴

Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun axborotdan foydalanadi. Har bir inson ob-havo prognozini, transport vositalari qatnovi jadvalini, bank va biznes ma’lumotlarini hamda kundalik yangiliklardan xabardor bo‘lishga muhtojdir. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor bo‘lmas ekan, u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrar.

Kommunikatsiya – lotincha, «communicatio», so‘zidan olingan bo‘lib, «xabar», «uzatish» degan ma’nolarni anglatadi. Kommunikatsiya so‘zidan tashqari «telekommunikatsiya» atamasi ham bo‘lib, ushbu so‘z «kommunikatsiya» so‘ziga qaraganda keng qamrovli hisoblanadi.

Telekommunikatsiya – signallar, belgilar, matnlar, tasvirlar, tovushlar yoki axborotning boshqa turlarini o‘tkazgichli, radio, optik yoki boshqa elektrmagnit tizimlaridan foydalangan holda uzatish, qabul qilish, qayta ishlash.³⁵

³³ O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda 439-II son “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni

³⁴ Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug‘ati. – Toshkent: TDPU, 2002. –B 27.

³⁵ O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustda 222-I son “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni

Texnologiya – soʻzi yunoncha boʻlib, (techne) – mahorat, sanʼat; (logos) – tushuncha, taʼlimot maʼnolarini anglatadi. Texnologiya tushunchasi, umuman, mehnat usullari, ishlab chiqarishning moddiy, texnik, energetik, mehnat zahiralarda gavdalangan ilmiy va injenerlik bilimlarining majmuasi, belgilangan talablar, andozalarga javob beruvchi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish uchun ularni birlashtirish usullarini oʻz ichiga oladi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish boʻyicha imkoniyatlarini kengaytiradigan maʼlumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalardir. Yana shuningdek, axborot kommunikatsiya texnologiyalari deganda, maʼlum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi.

Hozirgi kundagi taʼlim muassasalari faoliyatida qoʻllash samaradorligi yuqori boʻlgan quyidagi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keltirishimiz mumkin:

- kompyuterlar (notebook, netbook, statsionar komyuter);
- I-Pod;
- aqlli telefonlar;
- aqlli televizorlar;
- interaktiv proyektorlar;
- 3D monitorlar;
- interaktiv doska;
- yuqori sifatli veb kameralar;
- tarmoq texnologiyalari (wi-fi router, kommutator, repitor, ADSL-modem);
- 3D printerlar va hokazo.³⁶

Yuqorida sanab oʻtilgan ilgʻor axborot kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotiga juda ham tez kirib kelmoqda. Axborotlashgan jamiyat, uning beqiyos imkoniyatlari hozir hech bir yurtdoshimiz uchun yangilik emas. Bugun

³⁶ Mixridinova M.T. Taʼlimda axborot texnologiyalari: Maʼruza matnlari. – Toshkent: TATU, 2010. – B 144.

mamlakatimizda kompyuter, internet va boshqa zamonaviy texnologiyalar yetib bormagan shahar-u qishloq, mobil telefon kirib bormagan xonadon deyarli yo‘q. Joylarda qad rostlagan zamonaviy maktab, litsey va kollejlarda, oliy ta‘lim muassasalari deyarli so‘nggi rusumdagi kompyuter texnikasi bilan jihozlangan, raqamli aloqa va internet tarmog‘iga ulangan.

Bugungi kunda zamonaviy bilimga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashda, ularda kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishda ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning o‘rni beqiyos. Ta‘limning barcha bosqichlarida turli fanlarni o‘qitishda innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2013-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari ta‘lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va multimedia resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilayotir.³⁷

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyasi – bu zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsion vositalaridan foydalanadigan, foydalanuvchi ishlashi uchun interfeysga ega bo‘lgan axborot texnologiyasi demakdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks, modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma‘lumotlar omborini boshqarish tizimlarini kiritish mumkin.

O‘zbek tili va adabiyoti ta‘limi jarayoniga AKTni qo‘llashning ahamiyati – har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lgani kabi AKTni ham o‘quv jarayoniga tadbiq etishda o‘ziga mos tomonlarini belgilab olish darkor. Har bir

³⁷ Allamberganova M., Qidirniyazov A. Uzluksiz ta‘limda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari // Uzluksiz ta‘lim. – 2014. N4. –B 65-70.

mavzuni zamonaviy kompyuter imkoniyatidan foydalanib o'tish uchun, avvalo, o'quv jarayoniga kerakli elektron darslik, qo'llanma, dars ishlanma, o'quv film va ko'rgazmali materiallar va h.k bo'lishi lozim. Masalan, o'quvchi elektron darslik va internetdan dars jarayonida emas, balki, kutubxonada olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashda foydalanishi maqsadga muvofiq. Dars jarayonida esa o'tilayotgan mavzuga oid elektron dars ishlanmasidan, elektron o'quv filmidan yoki videofilmdan, didaktik materiallardan foydalanish samaradorlikni ko'proq oshishiga olib keladi. Chunki, o'quvchi ma'ruza shaklida mavzuni eshitishidan ko'ra ko'proq ko'z bilan ko'rib, ba'zi jarayonlarni bevosita kompyuterda bajarsa, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushunchalarni tez qabul qilishi hamda uni amalga joriy etishi yengil kechadi. Bu jarayonda darsda muammo qo'yish usulidan, uni yechimini topishda esa kichik guruhlarga bo'linib masalani hal etish ya'ni, aqliy hujum, muloqot usuli, mantiqiy fikrlash kabi usullarni qo'llash orqali o'quv samaradorligini oshirishga erishish mumkin bo'ladi.

Ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi fan sohalarini axborotlashtirishni, o'quv faoliyatini intellektuallashtirishni, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni, ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.³⁸

Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvini, pedagoglar o'rtasida vazifalarning taqsimlanishini, ta'lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirishga, o'quv faoliyatining xilma-

³⁸Taylaqov N.I., Usmonov M.S. Uzluksiz ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati // Uzluksiz ta'lim. - 2013. 5-son. – B 67-70.

xil tashkil etilishi hisobiga talabanning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga, interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga, sun‘iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabanning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashiga, axborot jamiyati a‘zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga, o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda boshqa ilg‘or mamlakatlar qatori zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta’limda faol foydalanishga kirishildi. Ammo, elektron ta’limni joriy etishda qator qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, u quyidagilardir:

- elektron ta’limni joriy etishga pedagogik jamoalarning yetarli tayyor emasligi;
- elektron ta’lim imkoniyatlari haqida tasavvurlarning ozligi, ularni qo‘llash bo‘yicha metodik ishlanmalarning kamligi;
- elektron ta’limda foydalaniladigan kompyuter texnologiyalari vositalarining qimmatligi;
- elektron ta’lim bo‘yicha mutaxassislarning yetishmasligi.

Elektron ta’limni joriy etish keng ma’noda ta’lim sohasini metodologiya, o‘qitish maqsadlarining psixologik-pedagogik tatbig‘iga yo‘naltirilgan yangi axborot texnologiyalari vositalarini samarali foydalanish va qayta ishlash amaliyoti bilan ta’minlash sifatida qaraladi.

Ba’zi xorijiy mamlakat tadqiqotchilari axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq qilishning salbiy jihatlarini ham ta’kidlaydilar. Xususan, yapon pedagogi S.Sudzuki: «Kompyuterli o‘qitish, bir tomondan, ta’lim oluvchilar aqliy taraqqiyotini rivojlantirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan esa bilimni mustahkam egallashni ta’minlay olmaydi», – degan fikrni bildiradi. Fransuz pedagogi L.Legren: «Kompyuterli mashg‘ulotlar ta’lim oluvchilarning asabi buzilishiga va

ko‘rish qobiliyatining pasayishiga olib keladi», – deydi³⁹. I.G.Zaxarova fikricha, kompyuterli o‘qitishda har bir ta’lim oluvchi ma’lum bir vaqtda «virtual talaba» sharoitida bo‘ladi. Demak, talabaning virtual muhitga ko‘nikib borishi ta’minlanishi kerak⁴⁰.

AKT asosida didaktik materiallar tayyorlash va dars tashkil qilishda didaktik materialni o‘zlashtirgan o‘quvchi nimani bajara olishi kerakligi oldindan rejalashtirilishi zarur. Bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar uchun aniq shart, ko‘rsatma talab qilinadi. Ana shu shart asosida ta’lim oluvchilar rioya qilishi kerak bo‘lgan aniq talablardan biri – vaqt me‘yori va baholash mezoni taqozo qilinadi⁴¹.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan o‘zbek tilini o‘qitishda foydalanish o‘quvchilarning diqqatini darsga jalb qilishga va dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida o‘quvchilar intellektual salohiyati va qiziqishlariga mos texnologiyalarni tanlay bilish lozim. Aks holda o‘quvchilarning diqqati darsdan tashqariga chiqadi va ko‘zlangan maqsadga erishilmaydi.

Dars samaradorligini oshirish uchun har bir mavzuga oid elektron ko‘rgazmali qurollarning mavjud bo‘lishi o‘ta muhim omildir. Ko‘rgazmali qurol yordamida mavzularni yoritilsa, dars maqsadiga erishish oson kechishi bilan birga vaqtdan ham ancha tejiladi. Natijada masala va mashqlarni ishlash uchun ko‘proq vaqt qoladi. Tayyorlangan ko‘rgazmali qurollardagi matn, turli rasm va shakllar takomillashgan DTSga, o‘quv dasturiga hamda darslikka mos bo‘lishi lozim.

O‘zbek tili va adabiyot darslarida har bir mavzuni axborot kommunikatsiya va ilg‘or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanib o‘tish katta ahamiyatga ega. Davlat ta’lim standartlarida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish bosh maqsad qilib belgilangan. Buning uchun dars jarayonida elektron darslik, qo‘llanma, dars ishlanma, o‘quv film, videodarslar, slaydlar va ko‘rgazmali materiallar bo‘lishi lozim. Dars jarayonida faqat o‘tilayotgan mavzuga oid

³⁹ Rasulov O.Y. Kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlarni elektron darsliklar vositasida o‘qitish. Ziyonet. uz

⁴⁰ Rasulov O.Y. Kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlarni elektron darsliklar vositasida o‘qitish. Ziyonet. uz

⁴¹ <http://www.prodlenka.org>. “Использование современных информационных технологий на уроках русского языка”

materiallardan – elektron dars ishlanmasi, multimediali vositalar yoki videofilm, o‘quv filmlari, didaktik materiallardan foydalanish ta’lim sifati hamda samaradorligini ta’minlaydi. O‘quvchi darsni ma’ruza shaklida eshitishdan ko‘ra, slaydlar orqali ko‘rib, ba’zi mashqlarni bevosita kompyuterda bajarsa, o‘zlashtirishi osonlashadi.

Hozirgi kun ta’limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo‘llarini o‘rgatish, ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiya usullarini samarali qo‘llashdan iborat. Ona tili darslarida ta’limning interfaol usullaridan foydalanish o‘quvchilarda mantiqiy, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirib, guruhlarda va hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi. Dars jarayonida ta’limiy o‘yinlarni samarali qo‘llash orqali o‘quvchilarda tezkorlik, topqirlik, sezgirlik, bilim olishga va fanga bo‘lgan qiziqishlari yanada oshadi .

O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisining ish faoliyatida o‘qituvchining AKTdan dars jarayoniga tayyorlanishida, internet imkoniyatidan foydalanib zarur ma’lumotlarni olishida, turli anjumanlarga tayyorlanishida katta imkoniyat beradi. Bu o‘qituvchini darsga tayyorlanishi uchun ijodiy yondoshishga turtki bo‘ladi. O‘quv jarayonini ko‘rgazmali qilib tashkil etish bilan o‘quvchilarni o‘z faniga qiziqishini oshirishga erishadi. Bu pirovard natijada, o‘quvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma va malakani puxta o‘zlashtirishiga sabab bo‘ladi.

Darsni ko‘rgazmali asosda, ya’ni taqdimot slaydlari yordamida, o‘tishi uchun o‘qituvchi darsni tashkil etish usulini mukammal bilishi bilan birga kompyuterda mavjud bo‘lgan amaliy dasturlarni o‘z ish faoliyatiga qo‘llash malakasiga ega bo‘lishi shart. Masalan, taqdimot slaydlar yaratish uchun Microsoft Office Word bilan birga Power Point dasturini mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo‘lib kelgan ma’naviyatning ma’no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etiladi. Ayni paytda istiqlo

yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritiladi. Shuningdek, jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga erishish hamda komil insonni tarbiyalash pedagog hodimlarning faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglashimiz lozim deb ta'kidlanadi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda pedagog uchun professional mahorat nafaqat uning faoliyatini osonlashtiradigan dasturiy-texnik vositalarni o'zlashtirish va qo'llash, balki o'qitishi lozim bo'lgan fanga oid intellektual va ijodiy masalalarni hal eta oladigan dasturlardan foydalanishga o'rgatishdan ham iboratdir. Bu ma'noda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsion texnologiyalariga oid kurslar tashkil etib, barcha fan o'qituvchilarini AKTdan o'quv jarayonida samarali foydalanuvchi mutaxassisga aylantirish lozimligini inobatga olib Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2011-yil 23-martda "Umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakasini oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi 61-sonli, "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha malakasini oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi Xalq ta'limi vazirligining 2012-yil 21-apreldagi 125-sonli buyrug'i qabul qilindi.

2011-yil mart oyida chiqarilgan buyruqning ijrosini ta'minlashga erishish zarurdir. Bu buyruqni ijrosini ta'minlash va qo'yilgan vazifani amalga oshirish uchun informatikadan dars berib kelayotgan malakali yetakchi pedagoglar, mutaxassislar trener sifatida jalb qilinib kompyuter savodxonligiga va har bir ta'lim muassasasi rahbarini, amaliyotchi o'qituvchilarni axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha kurslar tashkil etib kelinmoqda.

Umumta'lim maktablari davlat ta'lim standartlarining takomillashuvi, o'quv dasturlarining optimallasuvi hamda darsliklarning yangi avlodini yaratilishi bilan bir qatorda umumta'lim maktablari uchun elektron axborot-ta'lim resurslari yaratildi.

O'zbektili va adabiyotini o'qitishda elektron axborot-ta'lim resursidan foydalanish haqida gapirishdan oldin ushbu resurs haqida qisqacha tushunchalarga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Elektron axborot-ta'lim resursi (EATR) – o'rganish va ta'lim berish uchun qulay tarzda shakllantirilgan, ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan, turli yoshdagi va ta'lim olish darajasidagi o'quvchi va o'qituvchilarga mo'ljallangan, ma'lum bir fanni o'rganish uchun mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan elektron axborot manbalari majmuasidir.

Elektron axborot-ta'lim resursi tuzilishi

- Ma'ruza matni;
- Nazariy material;
- Nazorat dasturlari;
- Media materiallar;
- Audio materiallar;
- Mashq va masalalar to'plami, so'rovnoma;
- Qo'shimcha materiallar;
- Didaktik to'plam;
- Foto galereya;

Ta'lim jarayonida elektron o'quv vositalaridan foydalanishning nazariy asoslari

- Barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish;
 - O'qitishning uslub va usullarini individuallashtirish va intellektuallashtirish;
- ijodiy qabul qilish va o'quv-uslubiy materialning reproduksiyasi;

- Qo‘llaniladigan didaktik vositalarning muloqotbopligi, kommunikativligi va faolligi;
- Ta‘lim oluvchilarning bilish qobiliyatini yuksak darajada shakllantirish;
- Innovatsion (ta‘lim berishning yangi uslublarini) texnologiyalarni ta‘lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish.

Elektron axborot-ta‘lim resurslari – mustaqil ta‘lim olish vositasi sifatida:

- Ta‘lim oluvchi ta‘lim olishda o‘zlashtirish jarayonini mustaqil boshqaradi, o‘zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish esa o‘z navbatida sun‘iy intellektga ega bo‘lgan ta‘lim olish manbasi orqali amalga oshiriladi.
- Elektron dasliklarning qaysi fan yoki sohaga yo‘naltirilganligidan qat‘iy nazar, asosiy yo‘nalish boshlang‘ich ma‘lumotlarni, oraliq natijalarni vizuallashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu yo‘nalish joriy va yakuniy natijalarni ko‘rish imkoniyatini berish bilan birga uni tahlil etishga sharoit yaratadi.

Masalan, “So‘z ketidan so‘z kelar”, “Alifboni o‘rganamiz va safar qilamiz” kabiga yaratilgan EATR .

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda elektron axborot vositalari:

- Tarbiyalanuvchi yoshlarni fizialogik xususiyatlarini inobatga olgan holda tayyorlangan;
- O‘zbek tili va adabiyotiga doir biror mavzu mazmunini ochib berish hamda o‘quv-metodik maqsadlarga erishishga imkon bera oladigan darajada hajmga ega;
- Fan o‘quv-metodik maqsadlarga erishishga yordam beruvchi ko‘rgazmali elementlarga ega;
- Materialning monitor ekranidan ko‘rish;
- Ko‘rgazmalilik darajasining yuqoriligi, interaktiv topshiriqlar, o‘z-o‘zini baholash va nazorat qilish, mustaqil ishlash imkoniyati berilgan;
- Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun maxsus sharoitlarning yaratilganligi;

Elektron axborot-ta‘lim resursining asosiy xususiyatlaridan biri bu – ko‘rgazmalilik darajasining yuqoriligi, mashqlar orqali bilimlarni to‘ldirish va

mustahkamlash, DTS talablarini o'zlashtirishni nazorat qilish, mustahkamlash imkoniyatining mavjudligidadir.

EATR fodylanishdan oldin quyidagilar tavsiya etiladi:

- O'quv yili boshida EATRdan foydalanish yuzasidan tayyorlangan yo'riqnoma bilan tanishish, mavzuni tanlash;
- Yoshlarni EATR dan qanday foydalanish lozimligi bilan tanishtirish;
- Mashg'ulot jarayonini tashkil qilish, bolalarni ikkita (va undan ko'proq) guruhga bo'lish, har bir guruh uchun topshiriqlar tayyorlash;
- Yoshlarni o'z ustilarida ishlashlarini ta'minlashga oid ijodiy faoliyat turlarini tashkil qilish;

O'zbek tili va adabiyotini o'qitishda o'qituvchilar mazkur elektron axborot-ta'lim resurslari ishlanmasiga ijodiy yondoshishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki o'sib kelayotgan yosh avlod qaysi bir sohani tanlamsain, avvalo, u o'zining ona tilini va milliy adabiyotini o'rganmog'i, bilmog'i lozim. Bu jarayonga o'quvchilarda qiziqish uyg'onishi bevosita darsning qanday tashkil etilishiga bog'liq hisoblanadi. Darsni yaxshi tashkil etish esa, o'qituvchining qo'lida, albatta. Insonni o'zi qiziqqan narsagagina mukammal o'rgata olish mumkin. Bugungi kunda hech kimga sir emaski, axborotlashgan davr farzandlari ham aynan shu zamonga mos ruhda tarbiyalanmoqdalar. Shu sababli ham darslarni samarali tashkil etishda va ko'zlanga ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining va elektron manbalarning o'rni beqiyosdir.

Zamonaviy axborot kommunikatsiyalari va elektron axborot resurslari asosida darslarining samarali o'tishi eng avvalo, dars maqsadini to'g'ri belgilab olishga bog'liq bo'ladi.

- Darsda yangi mavzuni o'rganish zarurmi?
- O'rganilgan mavzuni mustahkamlashga qaratilganmi?
- Bilim, malaka va ko'nikmalarni takrorlashga mo'ljallanganmi?
- Mustahkamlash darsi uchunmi?

Ana shu maqsadga mos tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar ham nazarda tutiladi. Shu maqsadlardan kelib chiqib o'qituvchi dars shakli va metodlarini, o'qitish texnologiyalarini, pedagogik texnika usullarini tanlaydi. Shu asosida slayd taqdimotlarini yaratadi.

Zamonaviy axborot kommunikatsiyalari va elektron axborot resurslari asosida dars yuqori darajadagi samaraga erishish vositasiga aylanishi uchun har xil slaydlarning yig'indisi emas, balki bir butun mahsulotga aylanishi kerak. Agar slaydlarda berilayotgan ma'lumotlar va topshiriqlar bir-birini mazmunan davom ettirmasa, o'quvchini chalg'itadi va fikrini bir joyga jamlashida, mavzuning mohiyatini tushunishda qiyinchiliklar tug'diradi. Bundan tashqari taqdimotlarning har biri uchun tanlangan fon ham turli xil va rang-barang bo'lmasligi lozim. Bu bolaning ko'rish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va diqqatini bo'ladi.

Axborot texnologiyalari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning funksional va psixofiziologik imkoniyatlari inobatga olinishi shart. Pedagoglarning imkon qadar ko'proq ma'lumotlarni yoritishga intilishi o'quvchini ortiqcha toliqtirishga olib kelishi mumkin. Ekranni ortiqcha ko'rgazmalilikka to'ldirish dars samaradorligiga putur yetkazadi. Ma'lumotlarni uzatish tezligini oshirish esa ma'lumotlarni o'zlashtirish sifatining pasayishiga, xatolar sonining ortib borishiga, o'quvchining o'zini his qilishi va sog'ligiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ham o'qituvchidan:

- ko'rish organlariga tushadigan yuklamani hisobga olish;
- yangiliklarni qabul qilishda yuzaga keluvchi ruhiy ko'tarinkilik darajasini e'tiborga olish;
- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqlik va xatoliklar tufayli salbiy hissiyotlarning to'planib borishini inobatga olish;
- katta miqdordagi, hajmdagi ta'limiy resurslarni qabul qilish undan keyingi axborot resurslarini faol o'zlashtirishga to'sqinlik qilishini nazarda tutish taqozo qilinadi.

O'qituvchilarning ko'p yillik tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, darsda yuzaga keladigan tartibbuzarlik o'qituvchining o'ziga bog'liq bo'lmoqda. Agar o'quvchi

darsda nima bilan band bo'lishni bilmasa, u darsdan uzoqlashadi, qandaydir ko'ngilsizliklar yuzaga keladi.

AKT asosida didaktik materiallar tayyorlash va dars tashkil qilishda didaktik materialni o'zlashtirgan o'quvchi nimani bajara olishi kerakligi oldindan rejalashtirilishi zarur. Bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar uchun aniq shart, ko'rsatma talab qilinadi. Ana shu shart asosida ta'lim oluvchilar rioya qilishi kerak bo'lgan aniq talablardan biri – vaqt me'yori va baholash mezoni taqozo qilinadi.

Zamon bilan hamnafas bo'lish, zamonaviy AKT imkomiyatlaridan foydalanish samarasi hammani qoniqtirmoqda, ammo uning bir qator kamchiliklarini ham sanab o'tish foydadan holi bo'lmasdi. Avvalo, oldimizga bir savol qo'yaylik.

Har bir darsda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish kerakmi?

Birinchiidan, o'zbek tili va adabiyoti darslarini umumta'lim maktablarida, akademik litseylarda yoki kasb-hunar kollejlarida innovatsion axborot texnologiyalari asosida tashkil etishning har doim ham imkoni yo'q. Chunki ta'lim muassalaridagi barcha sinf xonalarida ham buning imkoni mavjud emas. Bu hozirgi kundagi oldimizda turgan dolzarb muammo va vazifalarimizdan hisoblanadi. Muammo deyishimizga sabab, o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy yo'llarini tanlar ekanmiz, dastlab, buning uchun sharoit yaratishimiz lozim, lekin har doim ham uning yechimini topa olmaymiz. Vazifa deyishimizning sababi esa, yosh avlodga bilim yetkazib berish, uni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani o'z bo'yimizga olayotgan ekanmiz bu yo'lda qo'limizdan kelgancha imkoniyatlarni o'zimiz yarata bilishimiz lozim. Masalan, dars jarayonida proyektor bilan ta'minlanmagan sinf xonasida audio materiallar yordamida darsni tashkil etishimiz mumkin.

Ikkinchiidan, dars jarayonida har doim elektron jihozlardan foydalanish bolaning ko'rish tizimiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, kompyuter texnologiyalaridan va slaydlardan to'g'ri foydalana olmaslik bunday oqibatlarga olib keladi. Shu sababli ham biz o'quvchiga tinimsiz interaktiv ekran yoki slayd topshiriqlari orqali ta'lim bera olmaymiz. Darsning qaysidir qismini vaqt me'yoriga amal qilgan holda bu jarayon uchun ajratishimiz lozim.

Uchinchidan, qo'llanilayotgan interaktiv metodlar, elektron ta'limiy resurslar va zamonaviy axborot texnologiyalari o'quvchini erinchoq qilib qo'ymasligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Chunki doimo tayyor narsani olish insonda shunga o'rganib qolishni shakllantiradi. Berilayotgan audio, slayd topshiriqlari o'quvchini o'z ustida ishlash undashi lozim. Ona tili darslarida, ayniqsa, ko'proq yozma topshiriqlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Eng muhumi, berilayotgan topshiriqlar o'quvchining dunyoqarashi va tafakkurini shakllantiishga va o'stirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

To'rtinchidan, dars jarayonida o'qituvchining ham faol ishtiroki sezilib turishi kerak. O'quvchilar topshiriqlar va mashqlarni bajarishi jarayonida ularning xato va kamchiliklarini nazorat qilib turishi, ularga qo'shimcha tushuntirishlar berib turishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

AKTga oid savodxonlik o'qituvchining o'quvchilar, hamkasblar, ota-onalar oldida obro'yini oshirish omillaridan biri ekanligini to'g'ri anglash zarur. Kompyuterdan o'qituvchiga o'quvchilar o'zlashtirishini kuzatish uchun monitoring bazasini tashkil etish, o'quvchilar erishayotgan natijalarini samarali kuzatish vositasi sifatida foydalanishni bilish, o'qituvchilik kasbiy-mutaxassislik faoliyatiga ijodiy yondashishga rag'batlantiruvchi vosita sifatida foydalana bilish zarur. Ota-onalar ham AKT vositalaridan foydalanayotgan farzandlari tarbiyasida quyidagilarga e'tiborli bo'lishlari zarur: farzandingiz zamon bilan hamnafas ulg'ayib borishida kompyuter va boshqa zamonaviy qurilmalardan foydalanishlariga to'sqinlik qilmaslik lozim, biroq ulardan to'g'ri foydalanishlarini doimiy nazorat qilib borish ham kerak. O'sib kelayotgan yosh avlodning o'zligini anglab borishida hamda shaxs sifatida rivojlanishlarida mazkur qurilmalarning ijobiy ta'sirini ham ta'kidlash zarur. AKT o'quvchilarningning mustaqil ta'lim olishida qulay imkoniyat yaratuvchi yanada qiziqarli omil bo'lishini unutmaslik lozim.

1.2.O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida internetdan foydalanish

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining turli sohalariga jadal kirib bormoqda va ularni rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda. Bunday texnologiyalarning ta’siri odamlarning turmush tarzi, ta’lim va ishida o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalari jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va ijtimoiy muammolarning hal etilishi uchun muhim omilga aylandi.

Zamonaviy AKT muhitida o‘qitishni internet resurslaridan foydalanishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Internet tarmog‘i ta’lim xizmatlarining juda katta potentsialiga ega. Elektron pochta, virtual kutubxona va muzeylar, ta’limiy portal va saytlar, mavzuli blog va forumlar, telekonferensiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar, zamonaviy ta’limning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu ta’lim xizmatlaridan, ham darsda, ham darsdan tashqari faoliyatda foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Internet ta’lim resurslaridan foydalanish o‘qituvchini ta’lim jarayonining menedjeriga aylanishga undaydi.

Internet – bu butun jahon kompyuter tarmoqlari majmuyidir, ya’ni yagona standart asosida faoliyat ko‘rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog‘idir. Unga ulangan kompyuterlar 2 guruhga bo‘linadi: serverlar va mijozlar. Internet - minglab lokal va mintaqaviy kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi hisoblanadi. WWW – World Wide Web – butun dunyo o‘rgamchak to‘ri hisoblanib, internet resurslarini tashkil etish va undan foydalanishni ta’minlab beradi.

Mamlakatimizda axborotlashtirish va ta’lim sohasida Internet resurslaridan to‘la foydalanish yuzasidan ko‘plab qonunlar va qarorlar qabul qilinib, ularning ijrosi ta’minlanmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida” gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida” gi PF-3080-sonli Farmoni, “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-1730-sonli, 2013-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-1989-sonli qarorlari, Hukumatning tegishli huquqiy-me‘yoriy hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari Kompleksini 2014-yil 9-yanvardagi 21-sonli majlis qarori, Xalq ta‘limi vazirligining 2014-yil 20-fevraldagi 38-sonli buyrug‘i va boshqalar. Hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning asosiy maqsadi mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet va multimedia resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Biz axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so‘z yuritish mumkin emas.

Hayotimizning eng muhim jabhalari uchun yuksak texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar yaratish, malakali mutaxassislar tayyorlash, jahon axborot texnologiyalari bozorida munosib o‘rin egallash masalasiga ustuvor ahamiyatga ega vazifa sifatida qarashimiz zarur.⁴²

Hozirgi kunda o‘qitish va o‘rganish jarayonida Internet texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga tatbiq etilishi borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday texnologiyalar ta‘lim jarayoniga ko‘maklashib, o‘qitish dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari, elektron darslik va jurnallardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda. Masofaviy ta‘lim olish foydalanuvchilarning testlarda, tadqiqot va ilmiy ishlar tanlovlarida, ta‘limga oid loyihalarda va ilmiy maktab ishlarida ishtirokini kuchaytirmoqda.

Yoshlarning mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy jarayonlardagi faol ishtirokini ta‘minlash, ularni foydali mashg‘ulotlar bilan band qilish maqsadida hukumatimiz tomonida ta‘lim-tarbiyaga oid ko‘plab internet saytlari va axborot resurslari tashkil etilmoqda. Ziyonet ta‘lim axborot tarmog‘i O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining

⁴² Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B 85.

jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida" gi qaroriga binoan 2005-yil sentabrda tashkil etildi.

Ushbu tarmoq mamlakatimiz maktablari, akademik litseylar, kollejlari, oliy o'quv yurtlari, yoshlar tashkilotlari, kutubxonalar, muzeylar va boshqa ta'lim, ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassalarni xaqaro axborot tarmog'iga, shu jumladan, Internet tarmog'iga ulash faqat Ziyonet tarmog'i orqali amalga oshirilishi, shaxsiy domen nomlarni ro'yxatga olish, axborot resurslarini Ziyonet tarmog'i Resurs markazining texnologik maydonchasida joylashtirish, saqlash va qo'llab-quvvatlash, elektron pochta xizmatlari ta'lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari, kutubxonalar, muzeylar, hamda boshqa, ilmiy hamda madaniy-ma'rifiy muassasalardagi foydalanuvchilarga bepul ko'rsatishi yo'lga qo'yildi.

Internet tarmog'i bilim olish jaroyida foydalanuvchining o'z ustida mustaqil ishlash, o'quv-tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirishga imkon bermoqda.

Internet imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya maqsadida foydalanish uchun o'qituvchi muayyan mavzuda muloqot, bahs va munozara tashkil etish, masalan, "Videodars", "Virtual auditoriya", "Ta'lim tarmog'i" kabi loyihalarni kiritish mumkin. Internetda bunday faoliyat shakllarini qo'llash ta'lim mazmunini boyitadi, o'quvchilarni o'zaro g'oyalar, fikrlar almashinuviga ega bo'lish imkonini beradi, guruhdagi o'quv ishi uchun ma'suliyatlarini oshiradi.

Bugungi kunda qaysi bir sohani olmaylik, uning rivoji zamirida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mujassam.

Kundalik hayotimizda foydalanilayotgan axborot texnologiyalariga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Kommunikatsiya texnologiyalari:

- Mobil telefonlar;
- Mobil internet;
- MMS va SMS.

Internet tizimi xizmatlari:

- Qidiruv tizimlari; (Masalan, google.uz)
- Veb sahifalar va brouzerlar; (Masalan, Internet Explorer. Mozilla Firefox, - Opera)
- Elektron pochta; (Masalan, email.uz, inbox.uz)
- Ko‘ngilochar saytlar.

Multimedia vositalari:

- Audio-videodars;
- Elekton darslik;
- Elektron test dasturlari;
- Video, MP3, SD, DVD pleerlar;

Kun sayin jahonda, shu jumladan, O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari oshib bormoqda. Ushbu bilan birgalikda hozirgi kunda O‘zbekistandagi xalqaro internet tezligi 11 gb/sek. ni tashkil etmoqda. Mamlakatimizda internet tarmog‘idan foydalanish samaradorligini oshirish, davlat organlarida dasturiy mahsulotlardan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasidagi ulkan ishlar zamirida inson manfaatlarini ta’minlash, munosib turmush sharoitini yaratish kabi ezgu maqsadlar mujassam. Shu bois bunday mas’uliyatli ishga yuzaki qarab bo‘lmaydi.

Internet domen nomlari internet manzillarida ishlatilib, ular mamlakat nomlarini, tashkilot va korxonalar faoliyatini anglatadi:

UZ – Uzbekistan; **RU** – Russia; **US** United States; **COM** – Commercial; **EDU** - US Educational; **GOV** – Government kabilar.

1990-yilda Tim Berners-li «World Wide Web» atamasini taklif etdi. 1993-yilda birinchi veb-brauzer Mosaic (mozayka) ishlab chiqildi va u Internet Explorerning asosi bo‘ldi.

Internet provayderlar quyidagi xizmatlarini taqdim etadi:

WWW - internet resurslarini tashkil etish

E-mail - elektron pochta xizmati

Web hosting - shaxsiy veb saytlarni internetga joylashtirish

Internet conference - internet orqali video muloqot

Searching - internet qidiruv tizimlaridan foydalanish

FTP - fayllarni almashish protokoli

IPTV - internet tarmog‘i orqali raqamli televideniya

IP telefoniya - internet tarmog‘i orqali telefon so‘zlashuvlar.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek «...o‘quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatadigan o‘qituvchi va domlalariga e‘tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta‘lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor». Darhaqiqat, hozirgi kunda ilg‘or axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida masofaviy ta‘lim tizimi, o‘zing qulayligi sababli butun dunyoda rivojlanyapti va o‘z samarasini bermoqda. O‘zbek tili va adabiyoti ta‘limi jarayonida masofaviy ta‘limdan foydalanish bir qator imkoniyatlarni ochib beradi.

Masofaviy ta‘lim (distant education) – o‘quv jarayonining maqsadi, mazmuni, uslublari, o‘qitish vositalari va Internet texnologiyasi yordamida tinglovchi va o‘qituvchilarning masofadan turib interfaol muloqot qilish jarayonidir.

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o‘zgarmoqda. Deyarli, har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o‘zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea-hodisalar sodir bo‘lmoqda. Har bir kunimiz kuchli axborot oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni uyda, ishxona va tashkilotda taqib etadi. Inson axborotdan holi normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o‘rganish axborotlarni yig‘ish va o‘zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma‘lum davr ichida shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan axborotlarning ko‘p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish ta‘limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida» gi qonuni ham zimmamizga shu ma‘suliyatni yuklaydi.

Vaxolanki ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida masofaviy ta'lim uslubi shakllari qo'llanilmoqda. Masofaviy ta'lim uslubi bu sirtqi o'qishning yangi shaklidir. Masofaviy ta'lim - bu mustaqil o'qish. Mustaqil o'qish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofaviy ta'limning yana bir afzalligi shundaki, unda o'quvchi o'ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli ushbu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Ko'pgina yirik korxonalar mutaxassislari malakasini oshirish yoki o'zgartirish uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab pul zahiralarini tejamoqdalar.

Masofaviy ta'limning yana bir afzallik tomoni, unda o'qish muddatini talaba o'zi belgilaydi, ya'ni talaba ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. Talaba berilgan programmani qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Programmani o'zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

Ekspertlarning fikricha hozir jahon tendentsiyasi, har bir voyaga yetgan kishidan oliy ma'lumot talab etmoqda. Lekin dunyo oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning faqat 9,3 foizi o'qiydi.

Har bir fuqaroning talabi va imkoniyatini hisobga olgan holda respublikamizda ta'lim dasturlari kunduzgi, sirtqi shaklida egallanadi. Respublikamizda hozirgi kun talabi masofali va oilaviy ta'limni amaliyotga joriy etishdan iborat.

Masofaviy ta'limda odatda ishlayotganlar, xonalar, o'qiyotganlar biror mutaxassislikni egallash yoki malakasini oshirish maqsadida o'qiydi. Bu uslub nogironlar uchun juda qulaydir. Masofaviy ta'limda hattoki mahbuslar ham o'qish imkoniga ega. Masofaviy ta'limdan o'qitish, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy qulaydir.

Masofaviy ta'limda tashkiliy iqtisodiy afzalliklarga ham ega. Masofaviy ta'limdan o'qitish uchun talabalar uchun auditoriyalar, yotoqxonalar zarur emas. masofaviy ta'limda moliyaviy harajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash

uchun, maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi. Bu harajatlarning asosiy qismi bu jarayonni tashkil etish bosqichida sarflanadi. Keyinchalik moliyaviy harajatlar kamayadi. Shuning uchun talabalar sonini oshishi bilan o'qish narxi ham pasayadi. Masofaviy ta'limda asosiy e'tiborni o'quv uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratish darkor. Chunki o'quv uslubiy materiallarning sifati masofaviy ta'lim sifatining eng asosiy omillaridan biridir. O'quv uslubiy material qanchalik tushunarli va batafsil bo'lsa, shunchalik u talabaga foydali bo'ladi. Ya'ni material uslubiy jihatdan puxta bo'lmog'i zarur.

Masofaviy ta'limning tarkibiy belgilari:

- o'qituvchi;
- talaba;
- kommunikatsiyadir.

Masofaviy ta'lim uslubiy materiallari quyidagilardir:

- darslik;
- audio va video darsliklar;
- onlayn darslar (Internet saxifa);
- elektron kutubxonalar;
- testlar;
- multimedia elektron darsliklar.

Hozirgi kunda respublikamizda ham masofaviy ta'lim uslubiy materiallari o'zbek tili va adabiyoti fanlarini o'qitishda ham foydalanilmoqda va yaxshi natijalar bermoqda.

Tilimizni va adabiyotimizni jahonga tanitishda uni ommalashtirishda va har bir inson xohlagan vaqtida o'rganishiga imkon yaratishda masofaviy ta'lim, onlayn va videodarslarning ahamiyati kattadir

II.BOB AKADEMIK LITSEY 2-KURSIDA “YORDAMCHI SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI MAVZUSINI O‘QITISHDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

2.1. 35-darsni o‘tishda qo‘llaniladigan axborot texnologiyalari

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinishi bilan ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Natijada umumiy o‘rta ta’lim to‘qqiz yilga keltirildi. Undan keyingi bosqich akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilariga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu fan o‘rta umumta’lim tizimidan farqli ravishda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” deb ataldi. Ushbu darslikka mo‘ljallangan dasturda yordamchi so‘zlar borasida o‘quvchilar uchun quyidagi talablar ko‘ndalang qilib qo‘yiladi:

- a)yordamchi so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish;
- b)ko‘makchilar va ularning uslubiy xususiyatlarini tushuntirish;
- c)bog‘lovchilar va ularning uslubiy xususiyatlarini tushuntirish;
- d)bog‘lovchilarning ma’no turlarini tushuntirish;
- e)bog‘lovchilarning uslubiy xossalarini tushuntirish;
- f) yuklamalarning tasnifi;
- g) yuklamalarning uslubiy xususiyatlari;
- h)yuklamalarning bog‘lovchilar bilan o‘xshash va farqli xususiyatlarini tushuntirib berish.

Ko‘rinadiki, ta’lim tizimining bu bosqichida, asosan, yordamchilarning uslubiy imkoniyatlari inobatga olingan. Endi bevosita darslikning o‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida yordamchi so‘z turkumlari mavzusi 35-36-37-darslarda berilgan bo‘lib, har bir dars ikki soatga mo‘ljallangan. Yordamchi so‘z turkumlari “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarining ikkinchi bosqichida berilgan bo‘lib, ularga quyidagicha ta’rif berilgan: Leksik ma’nosini yo‘qotib, grammatik ma’no ifodalashga o‘tgan, ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan so‘zlar borki, bunday so‘zlar yordamchi so‘zlar deb yuritiladi. Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlar bilan qo‘shimchalar oralig‘ida turgan grammatik vositalardir. Masalan, Hammasini tinglardim, ammo o‘xshashini topmasdim aslo.(H. Olimjon) Yordamchi

soʻzlarga koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalar mansubdir: *Vatan uchun toʻkkali yoʻqmi bir qoshiq qoning?* (H.Olimjon) Yuqoridagi gapda *Vatan* soʻzini *toʻkkali* feʻliga grammatik va mazmuniy tomondan bogʻlash maqsadida *uchun* yordamchisi ishlatilmoqda.

Darslikda koʻmakchilar quyidagicha taʼrif berilgan: Soʻzlarning oʻzaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun ishlatiladigan yordamchi soʻzlarga koʻmakchilar deyiladi. Masalan, *Oyni etak bilan yopib boʻlmas.* (Maqol) Koʻrib turganimizdek, Hozirgi oʻzbek adabiy tili darsligida koʻmakchilarga maktab darsligida berilgan taʼrifga umuman oʻxshamaydigan taʼrif berilgan. Yana koʻmakchi haqida quyidagi fikrlar berilgan: Koʻmakchilar tarixan mustaqil soʻzlar boʻlib, hozirgi kunda leksik maʼnosini yoʻqotgan va grammatik maʼno ifodalashga oʻtgan soʻzlardir. Mustaqil maʼnosini yoʻqotish darajasiga koʻra, koʻmakchilar ikki guruhga boʻlinadi: 1) sof (asl) koʻmakchilar; 2) vazifadosh koʻmakchilar. Leksik maʼnosini tamoman yoʻqotib, faqat grammatik maʼno ifodalashga oʻtgan koʻmakchilarga sof (asl) koʻmakchilar deyiladi. Bunday koʻmakchilarga *kabi, singari, bilan, birga, uchun, sayin, haqida, holda* kabi koʻmakchilar kiradi. Leksik maʼnosini saqlagan holda, gapda grammatik maʼno ifodalash vazifasini bajaruvchi soʻzlarga vazifadosh koʻmakchilar deyiladi. Bunday koʻmakchilarga *ustida (ish ustida), ostida (ozodlik bayrogʻi ostida), oldida (vijdoni oldida), orasiga (xalq orasida), boshida (yoʻl boshida), qarab (Toshkentga qarab yurmoq), boʻylab (daryo boʻylab)* singari koʻmakchilar kiradi. Vazifadosh koʻmakchilar koʻmaklashayotgan ot va feʻllardir. Shunga koʻra bunday soʻzlar mustaqil soʻz vazifasida ham kelishi mumkin boʻladi. Masalan, *kitob televizor ustida turibdi — televizor ustida janjallashdi. Devordan boʻylab qaradi — Ariq boʻylab ketdi* va h.k.⁴³ Maktab darsligida sof va vazifadosh koʻmakchilarga bundan ancha boshqacha taʼrif beriladi, masalan, vazifadosh koʻmakchilarga “atash maʼnosini yoʻqotgan” deya taʼrif berilgan boʻlsa, bunda “leksik maʼnosini saqlagan holda” deyilmoqda. Yoki sof koʻmakchilarga asl nomi

⁴³ Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Akademik litsey II bosqich talabalari uchun darslik.—Toshkent: Ilm Ziya, 2010. —B 391.

bilan almashtirsa bo‘lishi qavs ichida berilgan. Shuningdek, vazifadosh ko‘makchilarga “ko‘maklashayotgan ot va fe’llardir” deya ta’rif beriladi. Ko‘makchilar bir mustaqil so‘zni ikkinchi mustaqil so‘zga tobelashtirib bog‘laganligi uchun kelishik qo‘shimchalari bilan bir xil vazifa bajaradi, shuning uchun sof ko‘makchilarni ko‘p hollarda kelishik qo‘shimchalari bilan almashtirish mumkin bo‘ladi. Masalan, *Bolalar bog‘chasiga hadya qildim. Bolalar bog‘chasi uchun hadya qildim. Mehnatsevarligidan xalq o‘rtasida obro‘-e’tibor topdi. Mehnatsevarligi uchun xalq o‘rtasida obro‘-e’tibor topdi. Dalaga ketdi – dala tomon ketdi.* Kelishik qo‘shimchalari bilan ko‘makchilar o‘rtasida mazmuniy umumiylik bo‘lsagina biri o‘rnida ikkinchisi kela oladi. Birinchi gapda har ikkisida atash ma’nosi, ikkinchi gapda sabab ma’nosi, uchinchisida yo‘nalish ma’nosi mavjud. Ana shu umumiy ma’no ularning o‘zaro almashinuviga imkon beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, mazkur umumiy ma’noni qanday ifodalashda kelishik bilan ko‘makchi ma’lum darajada bir-biridan farqlanadi. Kelishik qo‘shimchasi orqali ifodalangan ma’no aniq, ko‘makchi orqali ifodalangan ma’no esa umumiyroq, noaniqroq bo‘ladi. Ayniqsa, bu farq yo‘nalish ma’nosini bildirishda aniq seziladi. Solishtiring: *Samarqandga ketdi — Samarqand tomon(ga) ketdi.* Ko‘makchilar va qo‘shimchalar ma’nodoshligi borasida ushbu darslikda faqat sof ko‘makchilarning kelishiklar bilan almashtirib qo‘llash mumkinligi aytiladi. Maktab darsligida faqatgina ayrim qo‘shimchalar va ko‘makchilarning o‘zaro ma’nodoshligi berilgan edi. Bunda, albatta, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini va qabul qila olish darajalarini hisobga olingan bo‘lsa ham ajab emas. Ammo bu darslikda maktab darsligida berilgan ba’zi masalalar chetda qolgan, masalan, ko‘makchilar bilan birga qo‘llaniladigan qo‘shimchalar masalasi. Akademik litsey darsligida berilgan ko‘makchilar mavzusiga oid mashqlar ancha murakkabligi va chuqur saviyasi bilan maktab darsligidan farqlanib turadi, chunki bunday yoshdagi o‘quvchi keng doirada fikrlay olish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Bundagi mashqlarga qo‘yilgan shartlarda barcha masalalar o‘rtaga tashlangan, xususan, sintaktik, morfologik, uslubiy talablar, mantiqiy fikrlash va hokazolar. Masalan, 345-mashqda “Nuqtalar o‘rniga zarur ko‘makchilarni qo‘yib, so‘z birikmalari hosil qilib

ko‘chiring” deya shart qo‘yilgan. Yoki 341-mashqda “Ko‘makchilarni topib, o‘zidan oldin kelgan so‘zlar bilan birga ko‘chiring va gapda qanday sintaktik munosabatlarni ifodalashini ayting” deyiladi. Yana 347- mashqda “Matn ichidan ko‘makchilarni topib, qaysi so‘z turkumidan keyin kelganini va turini ayting. Odatdagi shakldan boshqacha qo‘llangan ko‘makchilarning tagiga chizib, yozilishini tushuntiring, ular nutqning qaysi uslubiga xosligini ayting” deya shartlar qo‘yilgan. Undan keyingida esa bog‘lovchi mavzusi berilgan. Shuni aytib o‘tish kerakki, akademik litsey darsligida yordamchilar mavzusida uslubiyatga alohida e‘tibor berilgan, biroq, nazarimizda, yordamchilarning uslubiy xususiyatlari haqidagi qarshlarni yanada kengaytirish lozim. Endilikda bizning oldimizda turgan vazifa mavzuni o‘quvchilarga yetkazib berishda qanday zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasidir.

Bugungi kunda uzluksiz ta‘lim tizimida o‘quv-tarbiya ishlarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish lozimligini inkor etib bo‘lmaydigan haqiqatdir. Bu jarayon oson kechmasligi ma‘lum, lekin joriy etilayotgan uzluksiz ta‘limni qat‘iyan ilmiy asoslangan pedagogik tizimga keltirish zarur. Bu borada mamlakat taraqqiyotining poydevori sanalmish ta‘lim sohasida sezilarli yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda.

Innovatsion texnologiya shunday bilimlar sohasiki, uning vositasida yangi mingyillikda davlatning uzluksiz ta‘lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, pedagog faoliyati yangilanadi, o‘quvchi-talabalarda hurfikrlik, insonparvarlik tuyg‘ulari shakllantiriladi.⁴⁴

O‘quvchilarga ko‘makchilar va ularning ma‘no turlari haqida ma‘lumot berishda turli interfaol metodlardan foydalanishimiz mumkin. Bu metodlarni qo‘llashda zamonaviy axborot texnologiyalari vositasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki bugungi zamonaviy texnologiyalar asrida ulg‘ayayotgan o‘quvchi uchun bu samarali natija beradi. Masalan, biz qo‘llashimiz mumkin bo‘lgan

⁴⁴ Taylaqov N.I, Usmonov M.S. Uzluksiz ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati//Uzluksiz ta‘lim. – 2013. 5-son . –B 67.


interfaol metodlarni prayektor vositasida ko'rsatishimiz yoki audio vositalar yordamida eshittirishimiz mumkin. Bunda esa, albatta, o'quvchilarning yoshini va intellektual salohiyatini hisobga olishimiz lozim. Akademik litsey o'quvchilari maktab o'quvchilariga nisbatan saviyasi balandroq bo'lganligi tufayli dars jarayonida ham o'qituvchi murakkabroq metodlardan foydalanishi kerak. Zero, akademik litsey darsliklarida yordamchi so'zlar haqida chuqurroq ma'lumot berilib, ularning uslubiy xususiyatlari bilan bo'g'liq jihatlari ham yoritilgan. O'rta maxsus ta'limda yordamchi so'zlarni o'tishda adabiyot darslari bilan bog'lansa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Bunda o'qituvchidan, albatta, ijodkorlik va faollik talab etiladi. Bundan tashqari darsda taqdimotlardan foydalanish o'quvchilarning badiiy-estetik qarashlarini boyitishga xizmat qiladi. Ma'lumki, ta'limni kompyuterlashtirish o'quv-tarbiya jarayonini faollashtiradi, mavzuning o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishini ta'minlaydi. Bunda mustaqil ta'lim madaniyati rivojlanadi, o'qituvchining ko'rgazmali qurol tayyorlash uchun sarflanadigan vaqti va mablag'i sezilarli darajada tejaladi, o'quvchilarning kompyuter savodxonligi ortadi va hokazo. Ayniqsa, kompyuterning MS Power Point dasturiga asoslangan taqdimot texnologiyasidan foydalanish eng qulay, samarali va keng tarqalgan usullardandir. Mazkur dastur universal, imkoniyatlari katta bo'lgan ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik kabilardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.⁴⁵ Ona tili darslarida ham, xususan, ko'makchilarni o'qitishda boshqa fanlarda bo'lganidek, o'qitishning individualligini ta'minlash, o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ularga estetik tarbiya berish talab etiladi. Bunda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda axborot texnologiyalaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Jumladan, kompyuterdan foydalanish orqali so'z boyligini oshirish va boyitish, mustaqil fikrlash, ijodiy

⁴⁵ Adilova S. O'zbek tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –Toshkent: TDPU, 2006. –B 96.

tafakkurni rivojlantirish, nutqiy mahoratni shakllantirish, mustaqil matn yaratish malakasini oshirishga imkoniyat yaratiladi.⁴⁶


Darsda o'qituvchi kompyuterni ishga tushiradi va MS Power Point dasturi yordamida yaratilgan "Ko'makchilar va ularning uslubiy xususiyatlari" slaydlarini namoyish etadi. Slayd tayyorlashda tashkil etuvchining rangini, bezagini tanlashga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashildi, chunki kompyuterning ortiqcha effektlari, o'ta jilodor ranglar, baland ovozlari, noo'rin qo'llangan rasm, chizma, animatsiya, musiqa kabilar o'quvchini asosiy maqsaddan, ya'ni bilim olishdan, mustaqil fikrlash va fikr bildirishdan chalg'itishi mumkin. Aks holda mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadga erishish qiyin bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz o'z slaydlarimizni bezatishda eng sodda dizayn turini tanladik. 1-slaydda mavzu nomini slaydlar tayyorlashda so'zlar "betartib ravishda uchib kelish" effekti va mayin, juda past ovozda musiqa bilan ekranda paydo bo'ladi.



Keyingi slaydda darsdan ko'zlangan maqsadlar e'lon qilinadi.

⁴⁶ Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II bosqich Akademik litsey talabalar uchun darslik. –Toshkent: O'zbekiston, 2010. –B 394.



Darsning maqsadi:

- Ta'limiy:** Ko'makchilar, ularning turlari va uslubiyati haqida ma'lumot berish;
- Tarbiyaviy:** O'quvchilarni vatanga muhabbat va insoniylik fazilatlarini ruhida tarbiyalash;
- Rivojlantiruvchi:** Xulosa chiqarish malakasini oshirish.

3-slaydda dars uchun tanlangan kun hikmati namoyish etiladi. O'qituvchi hikmatning mazmuni va mohiyati haqida o'quvchilarning fikrlarini so'raydi va oxirida umumlashtirib xulosalaydi.


Kun hikmati

Of Good a man teaches you at least a letter with pain,
Hundred King's treasures be not enough to pay him.


Alisher Navoi.

4-slaydda ko'makchi deb nimaga aytilishi, ular gapda qanday vazifa bajarishi, ularga misollar birma-bir ovoz, animatsiya, matn, rang-tasvir singari multimedia vositalari yordamida yoritiladi. Bunda o'qituvchi faqatgina slaydlarni namoyish etib qolmay, balki so'zlarni, qoidalarni biroz vaqt "yashirib turib" o'quvchilarga ularni izlashni, o'z misollarini keltirishni, slaydda xatolar mavjud bo'lsa, topishni taklif

etadi, ya'ni ularni yangi mavzuni o'zlashtirishda mustaqil fikrlashga, faollikka undaydi.



So'nggi uch slaydda yangi mavzuni mustahkamlash uchun material berilgan. 9-slaydda avval diagramma "aylanma harakat" bilan paydo bo'ladi, keyin kompyuter, fotoapparat, konvertlarning rasmi chiqadi. O'quvchilar tezlik bilan berilgan nuqtalar o'rniga kerakli bo'lgan ko'makchilarni daftarlariga yozishlari kerak.



Klaviaturaning tugmachasi bosilgach, tekshirish uchun ekranda tegishli so'zlar paydo bo'ladi. O'quvchilardan ko'makchilar qaysi so'zlarga tobelanib bog'langanligi so'raladi. Birgalikda muhokama qilinadi. 10-slaydda birin-ketin nozik musiqa jo'rligida ekranda to'rtta "karnay" paydo bo'ladi. O'qituvchi slayd yuzasidan quyidagi topshiriqni beradi: "Hozir jaranglaydigan musiqa yoki tovushlarni

tinglaganingizda, birinchi bo‘lib xayolingizga kelgan so‘zlarni daftaringizga yozing va ko‘makchilar vositasida ularni istalgan boshqa so‘zlar bilan bog‘lang”. Kursor birinchi karnayga murojaat etganda, qo‘ng‘iroq jiringlaydi, ikkinchisidan “olqishlar”, uchinchi karnaydan Ozodbek Nazarbekovning “Mendirman o‘sha” qo‘shig‘idan bir parcha, to‘rtinchisidan esa “Animals” (“Hayvonot olamida”) saundtreki yangraydi. O‘quvchilar o‘z xayollarida shu ohanglar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni talab qilingan ko‘rinishda yozishlari kerak. Lozim bo‘lgan paytda tugmacha bosiladi va ekranda taxminan yozilishi kerak bo‘lgan so‘zlar paydo bo‘ladi. 11-slayddagi yozilgan ko‘makchilarning qo‘llanilishida xatolik mavjud, ular avval qizil rangda paydo bo‘ladi, keyin havo rangga bo‘yaladi, so‘ng qorayib qoladi. Barcha so‘zlarni to‘g‘rilab yozish yoki ikki ustunga ajratish lozim (to‘g‘ri qo‘llangan va noto‘g‘ri qo‘llangan ko‘makchilar ustunlari) va alifbo tartibida joylashtirish kerak. O‘quvchilar bu so‘zlarning qaysi biri to‘g‘ri, qaysinisi noto‘g‘ri ekanini rangiga qarab bila olmaydilar, bu vazifani faqat qoidani yaxshi tushungan, avvalgi slaydlardagi ma‘lumotni diqqat bilan o‘rgangan o‘quvchigina bajara oladi. Shu kabi “chalg‘itish” metodlari kognitiv xususiyatlarni ham rivojlantiradi, ya‘ni o‘quvchilar egallagan bilimlarini amalda tez va to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganadilar. 9-, 10-, 11-slaydlardagi amaliy ishni sinf o‘quvchilarini guruhlariga bo‘lib, musobaqa tarzida ham o‘tkazish mumkin. Bunda tezkorlik, topqirlik alohida baholanadi, rag‘batlantiriladi.

Shu yo‘sinda tashkil etilgan dars o‘quvchilarga psixologik nuqtai nazardan ham ijobiy ta‘sir qiladi. Natijada o‘quvchilar biroz jonlanadilar, mavzu tezroq mustahkamlanadi, u o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, qoidalarni amalda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi va, umuman, mashg‘ulot qiziqarli o‘tadi, uning samarasi ortadi. Ta‘kidlash joizki, til darslarini tashkil etishda o‘qituvchi kompyuter imkoniyatlaridan oqilona foydalanishi kerak.

Masalan, darsni tashkil qilishda “Ko‘makchi”, “Bog‘lovchi”, “Yuklama” mavzularini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lib, Alisher Navoiyning “Mehr va Suhayl”, “Mahbub ul-qulub”, “Rostlik ta‘rifida” asarlarida (adabiyot darsliklarida berilgan parchalar asosida) yordamchi so‘zlarning qo‘llanilishi bo‘yicha

vazifalar beriladi. Xususan, 1-guruh o‘quvchilariga bog‘lovchilarning qo‘llanilishi, 2-guruh o‘quvchilariga ko‘makchilarning qo‘llanilishi, 3-guruh o‘quvchilariga yuklamalarning qo‘llanilishini o‘rganib, o‘z kuzatishlarini taqdimot sifatida tayyorlash topshiriladi. Dastlab, o‘qituvchi Navoiyning ijodi haqida ma’lumotlar beradi. So‘ng, guruh sardorlari o‘z taqdimotlarini quyidagicha sharhlashlari mumkin. O‘quvchilardan biri “Mahbub ul-qulub” ning nasriy shaklda sa’j usulida yozilganligini va unda biriktiruv, zidlov va shart bo‘lovchilari faol qatnashganini ayiruv, sabab, maqsad bog‘lovchilari deyarli qatnashmaganini aytib o‘tadi. Va biriktiruv bog‘lovchisi hozirgi tilimizda bo‘lgani kabi uyushiq bo‘laklarni, qo‘shma gap qismlarini, ba’zi o‘rinlarda esa ham uyushiq bo‘laklarni, ham qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘langani ta’kidlanadi. Masalan,

Xaloyiqdin kishiga mujibi ta’zim va e’zoz

Va akobirdin asog‘irg‘a boisi iltifot va imtiyoz.

Bu yerda va bog‘lovchisi uyushiq bo‘laklarini bog‘lashga xizmat qilgan. Arslon ishi sayd urib sibo’ni to‘yg‘ormoq va sichqon varzishi diram o‘g‘irlab, tugunni axtarmoq. Ushbu gapda va bog‘lovchisi qo‘shma gap qismlarini bog‘lagan. Keyingi o‘quvchi “Mehr va Suhayl” hikoyatida biriktiruv bog‘lovchisining qo‘llanilishiga oid o‘rinlarni aytib o‘tadi. Masalan, ushbu asarda va bog‘lovchisi o‘rnida asosan – u, -yu vazifadosh bog‘lovchisi ishlatilgani aytiladi. Hikoyatdagi 44-baytda bir holatni ko‘rish mumkin:

Anda bir shox hokim-u voliy,

Mulki ma’mur-u himmati oliy.

Keyingi o‘quvchi “Rostlik ta’rifida” maqolatida ham va bog‘lovchisi vazifasini –u, -yu yuklamalari bajarib uyushiq bo‘laklarni bog‘lab kelganini aytib, misollar keltiradi:

Egri-yu tuz vasfi muhaqqaqdurur,

Botil erur egri-yu tuz haqdurur.

Shu tariqa guruh o‘quvchilari asar matnidan yordamchi so‘zlarning qo‘llanilishiga oid o‘rinlarni sanab, bog‘lovchi, ko‘makchi va yuklamalarning

eski o'zbek tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilishini mustaqil ravishda o'rganib, fikrlarini bayon etadilar.

Bu jarayonda yondoshuvning boshqacha ekanligi o'quvchilarning taqdimot tayyorlashlari bilan belgilanadi. Ya'ni o'quvchilarga uch gurug uchun uchta kompyuter beriladi va ular topshiriq jarayonida uchtadan beshtagacha bo'lgan varoqda slayd taqdimotlari yaratib, uni himoya qilib berishlari talab etiladi. Bu jarayon uchun o'n besh yoki uzog'i bilan yigirma daqiqali vaqt reglamenti belgilab beriladi. Bu jarayonda o'quvchilar axborot texnologiyalari, xususan, Microsoft Power Point dasturi bilan ishlash ko'nikmalarini oshiradilar va mavzu ham shu jarayonda teng o'zlashtirib boriladi.

Axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borar ekan ulardan ta'lim sohasida ham unumli foydalan olish bugungi kun o'qituvchisi oldidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

2.2. 36-darsni o'tishda qo'llaniladigan axborot texnologiyalari

Bugungi kunda butun dunyoda axborot texnologiyalari keng ko'lamda rivojlanmoqda. Shubhasiz, ta'lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini kiritish zarur, bu zamon talabidir. Bugungi kundagi AKT axborot uzatish hajmi va tezligi jihatidan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan foydalanishi bilan karakterlanadi. Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi va keng tarqalishi axborot texnologiyalarini muloqot, tarbiya, jahon hamjamiyatiga kirib borish vositasi sifatida ishlatish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonidan darslarni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq, albatta. Xususan, akademik litseyning 2-bosqichida berilgan 35-dars "Bog'lovchilar va ularning uslubiy xususiyatlari" mavzusini o'qitishda ham o'rni bilan AKT dan foydalanamiz. Dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi e'tiborli bo'lishi lozim, chunki biz foydalanayotdan turli metod va texnologiyalar yoki zamonaviy axborot

texnologiyalari vositalari o'quvchilarni darsdan chalg'ishiga olib kelmasligi, doimo bir xillikni keltirib chiqarmasligi, zeriktirmasligi va charchatmasligi lozim.

Quyida mavzu yuzasidan 35-darsda aks ettirilgan ma'lumotlarga to'xtalib o'tamiz. Odatda maktab darsligida avval qoida keyin misol berilar edi. Bunda biroz farqli ravishda avval misol keltirilgan va izohlangan:

Hammasini tinglarim, ammo o'xshahsini topmasdim aslo. Omon so'zlar va Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar. (H.Olimjon)

Keltirilgan gaplarning birinchisida *ammo* yordamchisin o'zaro zid ma'noli bo'lgan *tinglardim* gap bo'lagi bilan *o'xshashini topmasdim* bo'lagini; ikkinchi gapda *va* bir paytda ro'y berayotgan voqea haqida axborot beruvchi ikki gapni o'zaro bog'lash uchun qo'llangan.

Ikki va undan ortiq gap bo'lagi yoki gaplarni o'zaro bog'lab keluvchi yordamchi so'zlarga **bog'lovchilar** deyiladi.

Gap bo'lagi va gaplarni qanday bog'lashlariga ko'ra bog'lovchilar ikki turli bo'ladi:

a) teng bog'lovchilar; b) ergashtiruvchi bog'lovchilar.

O'zaro teng munosabatda bo'lgan gap bo'laklari, gaplarni bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchilar teng bog'lovchilar hisoblanadi. Teng bog'lovchilarga *va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yoki, yoxud, yo... yo, goh... goh* singari bog'lovchilar kiradi.

O'zaro tobe munosabatda bo'lgan gap bo'lagi va gaplarni bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchilarga ergashtiruvchi bog'lovchilar deyiladi. Bunday bog'lovchilarga *chunki, sababli, tufayli, shuning uchun, shu bois (sabab, sababli), ya'ni, -ki* singari so'zlar kiradi.

Teng bog'lovchilar ham ergashtiruvchi bog'lovchilar ham o'z ichida bir necha ma'no guruhlariga bo'linadi. Buni quyidagi jadvalda ko'ring:

Bog'lovchi turlari	T/r	Bog'lovchilarning turlari	Vazifasi	Bog'lovchilar
Teng bog'lovchilar	1.	Biriktiruv bog'lovchilari	Uyushiq bo'lak va bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lab, biriktiruv munosabatini	Va, hamda bog'lovchi vazifasida kelgan bilan

			ifodalaydi.	ko‘makchisi, ham yuklamasi
	2.	Zidlov bog‘lovchilari	O‘zaro zid ma‘noli uyushiq bo‘laklarni va qo‘shma gap qismlarini bog‘laydi.	Ammo, lekin, biroq, lek, vale
	3.	Ayiruv bog‘lovchilari	Uyushiq bo‘lak va qo‘shma gap qismlarini bog‘lab, ayiruv va galma-gallik munosabatini bildiradi.	Yo, yoki, yoxud, yoinki, yo...yo, goh- goh, dam...dam, ba‘zan... ba‘zan
Ergashtiruvchi bog‘lovchilar	1.	Aniqlov bog‘lovchilari	Ajratilgan bo‘laklarni ajratilmish bo‘lakka, ergash gapni bosh gapga bog‘lab aniqlov munosabatini bildiradi.	ya‘ni, -ki (- kim)
	2.	Sabab bog‘lovchilari	Sabab ergash gapni bog‘lab, ular o‘rtasidagi sabab-natija munosabatini ifodalaydi.	Chunki, shuning uchun, shu sabab (dan), shu sababli, shu tufayli
	3.	Shart bog‘lovchilari	Shart, to‘liqsiz hol hamda ergash gaplarni hokim bo‘lak yoki bosh gaplarga bog‘lab, ular o‘rtasidagi shart va to‘siqsizlik munosabatini ifodalaydi.	Agar, basharti, mabodo, garchi
	4.	Chog‘ishtiruv bog‘lovchilari	Gap bo‘laklari va gaplarni o‘zaro bog‘lab, ular o‘rtasidagi bog‘lanishda qiyoslash ma‘nosini ifodalaydi.	Go‘yo, go‘yoki, xuddi

Yuqorida keltirilgan bog‘lovchilarning har bir ma‘no turiga bir necha bog‘lovchilar mansub. Har qaysi guruhga mansub bo‘lgan bog‘lovchilar bir-biridan uslubiy xoslanishga egaligi bilan farq qiladi.

Biriktiruvchi bog‘lovchi sifatida oddiy so‘zlashuv uslubida ko‘proq *bilan (minan)* ko‘makchisi ishlatiladi. *Va, ham, hamda* yordamchilari esa yozma nutq uslublari uchun xoslangan. Zidlov bog‘lovchisi sifatida so‘zlashuv uslubi uchun ammo, lekin bog‘lovchilarining birikkan holida *ammo-lekin (ammolek)* shakli ko‘proq ishlatiladi. *Lekin bog‘lovchisining lek, vale (valekin)* shakllari ham badiiy uslub uchun xoslangan. Ayiruv bog‘lovchilaridan *yoxud, yoinki* yozma nutq uslubi (publitsistik, badiiy uslub)dagina qo‘llaniladi. Aniqlov bog‘lovchilari faqat

yozma nutq uslubida qo‘llaniladi. Sabab bog‘lovchilaridan *chunki, shu sabab, shu tufayli* ko‘proq yozma nutq uslubida qo‘llaniladi. Shart bog‘lovchilaridan garchi yozma nutq uslubi uchun xoslangan. Chog‘ishtiruv bog‘lovchilaridan *xuddi* uslubiy betaraf, go‘yo yozma nutq uchun xoslangan.⁴⁷

Shu o‘rinda aytilish kerakki, maktab darsligida xuddi, go‘yo so‘zlari yuklama bo‘lishi ta’kidlanadi. Biroq mazkur darslikda bular bog‘lovchi deb keltirilgan. O‘rta maxsus ta’lim darsligida teng bog‘lovchilar uchta tarkibiy qismlarga bo‘lingan, ya’ni biriktiruv, zidlov va ayiruv bog‘lovchilari. Maktab darsligidagi inkor bog‘lovchisi berilmagan. Ergashtiruvchi bog‘lovchilarda esa aksincha, bu yerda aniqlov, sabab, shart bog‘lovchilariga qo‘shimcha ravishda chog‘ishtiruv bog‘lovchisi ishtirok etmoqda. Unga go‘yo, go‘yoki, xuddi kabi so‘zlar kiritilgan. Maktab darsligida sabab bog‘lovchilariga *chunki*, negaki kabilar kiritilgan, bunda shuning uchun, shu sababli, shu tufayli kabilar sabab bog‘lovchisi sifatida beriladi. Endi berilgan mashqlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular qoidaga mos va o‘rinli. Masalan, 354-mashq uchun “Berilgan matnni o‘qituvchi asta-sekin o‘qiydi. O‘quvchilar eshitganlari asosida faqat bog‘lovchilarni daftarlariga yozadilar” kabi shart qo‘yilgan.

Audio vositalardan foydalanish

Bog‘lovchilar mavzusini o‘quvchiga tushuntirishda, uni mustahkamlashda ko‘proq matn bilan ishlash, turli suhbatlar uyushtirish, ya’ni amaliyotda ularni qo‘llash to‘g‘ri bo‘ladi. Bu esa mavzuga oid axborotlar o‘quvchilarning xotirasida osonroq saqlanadi. Shu bois ham ularga audio vositalar yordamida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan matnlarni eshittirish yoki o‘zlariga shunday matnlar tuzdirish lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi tomonidan biror badiiy asrdan parcha, o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan ma’lumotlar aks ettirilgan matn yoki boshqa xil tipdagi ma’lumotlar jamlanmasi tanlanadi. Alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, tanlanayotgan

⁴⁷ Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. II bosqich Akademik litsey talabalari uchun darslik. –Toshkent: Ilm Ziyo, 2013. –B 398-399.

matn topshiriqning o‘quvchilar tomonidan bajaralishida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki grammatik qismga o‘tishdan oldin berilayotgan ma’lumot o‘quvchini o‘ziga jalb qila olishi lozim. Audio topshiriq matni datlab hammaga eshittiriladi, shundan so‘ng o‘quvchilarga undagi bog‘lovchilarni topish va ular qaysi guruhga mansub ekanligini belgilash topshirig‘i beriladi va qaytadan audio matn tinglanadi. Buning sababi, birinchi eshitishdayoq grammatik topshiriqni bajarish, birinchidan, matnni yaxshi tushunib yetmaslikni keltirib chiqaradi. Bunda esa tanlangan matnning ta’siri va ahamiyati yo‘qoladi. Ikkinchidan esa, audio topshiriqni bajarish katta diqqatni talab etadi, tanish bo‘lmagan matnni birinchi eshitishdayoq buning uddasidan chiqish mushkul.

Bu topshiriq o‘quvchilardan diqqatni, topqirlikni, tezlikni va zukkolikni talab etadi. Ular faqat eshitish orqali topadilar va ovoz bilan teng harakat qilishlari lozim. Ulardagi salgina chalg‘ish ham ishning chala qolishiga olib keladi.

Bunday topshiriqlarni darslarda tez-tez qo‘llab turish lozim. Shunda o‘quvchilarda bu jarayon bilimdan ko‘nikmaga, malakaga aylanib boradi. Bu esa ularni atrofdagi bo‘layotgan hodisalarni tez ilg‘ashga va baho bera olishga ham o‘rgatadi.

Masalan, quyidagi Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” asaridagi “Hur qiz” hikoyasidan olingan parcha o‘quvchilarga eshittiriladi. Bundan kutiladigan yana bir natija o‘quvchilarda badiiy asarlarga bo‘lgan qiziqishni orttirishdir. Agar o‘qituvchi asarning eng kulminatsion nuqtasidan parcha tanlay olsa, bu o‘quvchilarning shu asarni topib o‘qishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi va ularni badiiy asar mutolaasiga yo‘naltiradi.

“Hur qiz”

... Sarviniso o‘ychan, lekin beixtiyor tovush chiqarib gapira boshladi:

– Poyezd meni chaqiryapti... Chaqir! Qattiqroq chaqir, boraman! Meni uzoq-uzoq yurtlarga olib ket!

Qayoqdandir paydo bo‘lgan amakimning baqirga tovushi eshitildi.

–Qayoqqa olib ketadi! –dedi va Sarvinisoga tomon otildi.

Men arang qochib qoldim. Amakim daxshat ichida o‘zini uyga urgan Sarvinisoning ketidan otilib kirdi. Sarvinisoning avval “Dadajon!” degan chinqirig‘i, keyin mushukday vag‘illagani, nihoyat, ingragani eshitildi-yu jim bo‘lib qoldi. Bu jimlikda kampirning tovushi eshitildi:

–Hoy, bola, Abdurahmon, evida! Po‘pisa qilgin, qo‘rqitgin, nainki shunaqa ursang!

Men derazaning oldida dag‘-dag‘ titrab turardim. Qorong‘i uydan ayam chiqdi, mening rang-qutim o‘chganini ko‘rib yugurib keldi, qumg‘ondan suv olib yuzimga sepdi, gap so‘radi. Men javob berishga ulgurmay ichkaridan amakim chiqdi, onamga “kir” deb ishora qildi-yu, oyog‘idan tushib qolgan bir poy kovushini kiyib ko‘chaga chiqib ketdi.

–Vahima qilma, o‘lmaydi, kechgacha tuzalib qoladi, –dedi kampir boshida tushib ketayotgan ro‘molini peshonasiga surib. –Ovsiningga aytmay qo‘ya qol!..

Kampir chiqib ketdi.

Sarviniso kechgacha ham o‘ziga kelmadi, aksincha, isitma chiqardi. Ayam uning yonidan jilmadi ...

Shomdan keyin dadam bilan amakim kelishdi. Dadam Sarvinisoning yonida birpas o‘tirgandan keyin yelkasiga sekin turti. Sarviniso ko‘zlarini xiyol ochdi, lekin osma chiroqning xira shu’lasida dadamni tanimadi, sinchiklab qarashga darmoni yetmadi, shekilli, ko‘znini yana yumdi.

Yarim kechaga borib Sarviniso og‘irlashib qoldi. Hech kim, hatto, kampir ham kechasi bilan ko‘z yumadi. ... Sarviniso o‘sal ekan, shekilli, dadam chuqur xo‘rsinib ayamga: “Bechora tugab boryapti, ko‘zlarini ko‘rdingmi, dunyoga to‘ymayapti”, dedi.

Sarviniso o‘sha mahalda uzilgan ekan.

O‘lik yuzilib tobutga solingandan keyin azaga kelgan xotinlar orasida: “Qizining o‘ng biqini momataloq bo‘lib yotipti, zarb yegan ekan” degan gap o‘rmlab qoldi.

Buni fahmlagan fahmladi-yu, fahmlamagan fahmlamadi, yopiqliq qozon yopiqligicha qolaverdi.⁴⁸

Badiiy asardan berilgan parchani tahlil qilishni o'quvchilarga topshirish lozim. Eng muhimi asar sujetidan o'qituvchi o'quvchilarga gapirib bermasligi o'quvchini asarni topib o'qishga undaydi.

Yana bir muhim jihat audio ovozning o'qilish darajasi bilan bog'liq. Berilayotgan matn ma'lumot beruvchi, kulguli yoki g'amgin ekanligiga qarab intonatsiya bilan o'qilishi shart.


Bundan tashqari, o'quvchilarga beriladigan topshiriqlar audio shaklda e'lon qilinishi ham mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi o'rinli foydalana bilishi lozim. Doimo o'qituvchidan emas, audio shakldagi ovoz orqali topshiriq olish o'quvchilarga o'zgacha yondashuv sifatida baholanadi va uning darslar orasida qo'llanilib turishi o'quvchilar diqqatining ortishiga yordam beradi.

Bog'lovchilar mavzusini tushuntirishda qo'llaniladigan metodlarni axborot texnologiyalari vositasida uzatib berishimiz ham mumkin. Bunda proyektordan va slayd taqdimotlaridan foydalanamiz. Ekranda barcha uchun teng ko'rinib turgan topshiriq ustida ishlash o'qituvchi uchun ham qulaylik yuzaga keltiradi. Demak, slayd taqdimotlardan faqat ma'lumot berish uchun emas, balki berilgan ma'lumotlarni mustahkamlovchi topshiriqlar berishda ham foydalanishimiz mumkin.

⁴⁸ Abdulla Qahhor. O'tmishdan ertaklar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. –B 28-29.

1-topshiriq. Berilgan gapdagi nuqtalar o`rniga va, bilan, hamda, -u(-yu), -da yordamchilarini almashtirib qo`yib ko`ring.

- Otni soy bo`yiga bog`ladi . . . o`zi yuqoriga chiqib ketdi. *(Abdulla Qahhor)*



Yuqoridagi topshiriq og`zaki bajariladi va unda o`quvchilar o`z misollari bilan qatnashadilar. Har bir o`quvchi o`z fikrini asoslab bera olishiga alohida e`tibor qaratish lozim. Chunki tushunib bajarilgan narsa inson xotirasida ko`proq saqlanib qoladi.

Quyida berilgan topshiriqda esa, bilimlar sintaksisga bog`langan holda sinaladi. O`quvchilar “Iqtidor”, “Zakovat”, “Iste`dod” kabi uch guruhga ajratiladilar va bu guruhlar uchun berilgan maxsus topshiriqlarni bajaradilar. Ko`rib turganimizdek, kichik guruhlarda ishlash jarayonida ham axborot texnologiyalari vositasidan foydalanishimiz mumkin. Uning afzalliklarida yana biri ortiqcha qog`ozlardan va chiqimdan qutulishdir, sababi elektron doskada berilaytgan materiallar barcha o`quvchilar uchun birdek ko`rinadi va tushunarli bo`ladi. Har bir kichik guruh uchun yoki har bir o`quvchi uchun alohida material chiqartirish shart bo`lmaydi.





Ushbu topshiriqda o‘quvchilarning bilimi sinaladi. Ular buni o‘zlari uchun takrorlab o‘tadilar. Chunki o‘rganayotgan bilimlari ularning o‘zlari uchun kelgusi hayotlarida asqotadi. O‘qituvchidan esa ularni to‘g‘riyo‘naltirish talab etiladi, xolos. Keyingi taqdimotda esa topshiriq to‘ldirilgan holatda aks ettiriladi.

Bu topshirini ekranda ko‘rib bajarish o‘quvchilar uchun noqulaylik tug‘diradi, shu sababli ular topshiriqni kitobdab o‘qib bajaradilar, lekin yozma ravishda ekrandagi jadval asosida daftarlariga qayd etib boradilar. Mashqni bajarib bo‘lganlaridan so‘ng esa uning to‘ldirilgan ko‘rinishi namoyish qilinadi. Shunda tekshirish jarayonida vaqt tejaladi va barcha uchun tushunarli bo‘ladi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilarning turiga ko`ra jadvalga joylashtiring.

1. Ozigina hovliqib turishsa ham, cho‘chishsa ham mayliga, negaki keyin yelkalaridan yuk arigan mahali tuyadigan shodliklari ham shunga yarasha bo‘ladi. (Murod Muhammad Do‘st) 2. Soliqni bermangiz demayman, chunki sizning itoatingiz menga bundog‘ to‘nlar berar! (Abdulla Qodiriy). 3. Misralarda so‘zlar gavhar kabi yonadi, go‘yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi. (Oybek) 4. Bu masalani sinfda keng muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin. («G‘uncha») 5. Vijdonni asrangiz har nedan ortiq, Bobolardan qolgan noyob bu tortiq, Toki avlodlarga yetolsin omon. (A.Oripov)

Maqsad	Sabab	Aniqlov	Chog'ishtiruv

Ergashtiruvchi bog'lovchilarning turiga ko'ra jadvalga joylashtiring.

1. O'zgina hovliqib turishsa ham, cho'chishsa ham mayliga, negaki keyin yelkalaridan yuk arigan mahali tuyadigan shodliklari ham shunga

yarasha bo'ladi. (*Murod Muhammad Do'st*) 2. Soliqni bermangiz demayman, chunki sizning itoatingiz menga bundog' to'nlar berar! (*Abdulla Qodiriy*). 3. Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi. (*Oybek*) 4. Bu masalani sinfda keng muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin. («*G'uncha*») 5. Vijdonni asrangiz har nedan ortiq, Bobolardan qolgan noyob bu tortiq, Toki avlodlarga yetolsin omon. (*A. Oripov*)

Maqsad	Sabab	Aniqlov	Chog'ishtiruv
toki	Negaki,		Go'yo
toki	Chunki,		

Bog'lovchilar mavzusini o'zlashtirishda ham videodarslardan foydalanish mumkin, lekin dars jarayonida asosiy mazmun mavzuni tushuntirish va tushunishga qaratilishi kerak ekanligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi bu bilim berishdir. Vositalarni esa mavzu mazmuniga mos tarzda o'rni bilan qo'llay bilish kerak.

Darslikda berilgan topshiriq va mashqlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ularni bajarishda innovatsion yondashish maqsadga muvofiqdir, sababi doimo bir xil tarzda kitobdan mashqlarni bajarish o'quvchida zerikishni keltirib chiqaradi, bu zerikish esa bora-bora fanga bo'lgan qiziqishning yo'qolishiga olib keladi.

“Test markazi” metodi

Akademik litseyning II bosqichida o'qiyotgan o'quvchi talabalik arafasida bo'ladi. Bu jarayonda esa, sir emaski oliy o'quv yurtlariga tayyorgarlik dastlabki o'rinlarni egallaydi. Dars jarayonlarida ularni kirish imtixon testlariga ham tayyorlab

borish lozim. Mavzuni o‘quvchi yaxshi o‘zlashirishining eng samarali usullaridan biri bu o‘quvchining o‘zini ishlatishdir.

Buni qanday qilishimiz mumkin?

Vaqt reglamentini hisobga olgan holda dars mobaynida o‘quvchilarga mavzu tushuntiriladi va turli topshiriq va mashqlar, test materiallari bajartiriladi. Uyga vazifa sifatida esa, darslikda berilgan bog‘lovchilar uchun ajratilgan darsdagi berilgan barcha ma’lumorlardan foydalanib (darslikdan chetga chiqmagan holatda) test tuzib kelish beriladi. Tayyor testni bajarish jarayonidan ko‘ra test tuzish jarayonida o‘quvchi ko‘p narsani eslab qoladi va u test tuzish jarayonida izlanishga majbur bo‘ladi. Kelasi darsda esa o‘quvchilar tuzgan testlarini bir-birlari bilan almashgan holatda bajaradilar. Bu o‘quvchilarda ilmiy salohiyatning oshishiga ham xizmat qiladi.

Bu metodni dars jarayonida ham tashkil etish mumkin, lekin uning qamrovini keng qila olmaymiz. Bu orqali ko‘p vaqtni yo‘qotishimiz mumkin, shu sababli ham uni uyga topshiriq sifatida berishimiz maqsadga muvofiqdir.

2.3. 37-darsni o‘tishda qo‘llaniladigan axborot texnologiyalari

Akademik litsey 2-bosqich Hozirgi o‘37-darsda “Yuklamalar va ularning uslubiy xususiyatlari mavzusi aks ettirilgan bo‘lib yuklamalar haqida darslikda quyidagi ma’lumotlar keltiriladi:

Yoramchi so‘zlar deb yuritiluvchi guruh tarkibida shunday yordamchilar borki, ular so‘z va gaplarni bir-biriga bo‘lgan sintaktik munosabatini ifodalaydi. Maslan, *faqat o‘qishni o‘ylaydi* jumlasidagi *faqat* yordamchisi *o‘qishni* so‘zini boshqalaridan ayirib, bo‘rttirib, ta’kidlab kelyapti. Shuning uchun ham bu jumla zamirida *boshqa narsani o‘ylamaydi* degan ma’no ham yashiringandir. Ana shu yashirin ma’noga ishora *faqat* yordamchisi orqali seziladi. Agar mazkur jumla tarkibidan *faqat* yordamchisini olib tashlasangiz, yuqoridagi yashirin ma’no ham xiralashadi.

So‘z va gaplarga qo‘shilib ularga qo‘shimcha ma’no yuklovchi yordamchilarga **yuklamalar** deyiladi.

Yuklamalarning ko‘pchiligi qo‘shimcha shaklida, ayrimlari esa so‘z shaklida qo‘llaniladi:

1. So‘z yuklamalar: faqat, hatto, nahotki kabi.
2. Qo‘shimcha yuklamalar: -mi, -chi, -a kabi.

Eslatma: Aslida ikkinchi guruhdagi yuklamalar qo‘shimchalar ekan, ularni so‘z turkumlari tarkibida o‘rganish shartlidir, chunki so‘z turkumlariga bo‘linish uchun u, albatta, so‘z maqomiga ega bo‘lishi shart.

Yuklamalarning qanday ma’no guruhlariga bo‘linishini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

Yuklamalarning ma’no turlari.	So‘roq va taajub	Kuchaytiruv va ta’kid	Ayiruv-chegaralov	Gumon yuklamasi	Inkor yuklamasi
Yuklamalar	-mi, -chi, -a, (-ya)	-ku, -u, (-yu), -da, -oq, (-yoq), ham, hatto	-gina, (-kina, qina), faqat	-dir	na...na

Yuqorida keltirilgan yuklamalardan *-ku, na...na* yuklamalari yozma nutq uslubi uchun xoslangan bo‘lsa, qolganlari uslubiy betaraf yuklamalar sanaladi.

Ham yuklamasi bog‘lovchi vazifasida ham qo‘llaniladi. Bunday vaqtda qaysi vazifada (yuklama yoki bog‘lovchi vazifasida) kelayotganini farqlash kerak bo‘ladi.

Ikkita o‘zaro teng munosabatga kirishgan so‘zlarni bog‘lab, *va* bog‘lovchisi bilan almashtirish mumkin bo‘lsa, *ham* bog‘lovchi vazifasida qo‘llangan bo‘ladi. *Ham* yordamchisi qo‘llanilgan jumla tarkibiga *hatto* yordamchisini ham qo‘llash mumkin bo‘lsa, *ham* yordamchisi yuklama vazifasida, ya’ni o‘z vazifasida qo‘llangan bo‘ladi. Solishtiring: *Soli ham Karim keldi. Hatto Karim ham keldi.*

Yuklamalardan *-mi, -gina (-kina, -qina), -oq (-yoq)* o‘zi qo‘shilayotgan so‘zga qo‘shib yoziladi. Qolganlari o‘zi birikib kelayotgan so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

E s l a t m a: *-gina (-kina, -qina)* shakllari ot, sifat, ravishga qo‘shilib, ma’noni kuchaytirish, erkalash, ta’kidlash uchun ishlatiladi. Masalan, ukaginam, qizgina, yaxshigina, sekingina, ko‘pgina, ozgina va boshqalar.⁴⁹

Ammo maktab darsligida berilgan o‘xshatish-qiyoslash yuklamalari bu manbada uchramaydi. Mashqlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular qoidalarga mos, uslubiy, orfografik tomonlar hisobga olingan holda tuzilgan. Chunonchi, 359-mashqda “Gapga so‘roq, his-hayajon, taajjub, ta’kid, kuchaytiruv, ayiruv ma’nolarini beruvchi so‘z va qo‘shimchalarni topib, ularning ostiga chizing” kabi shart, 360-mashqda esa “Berilgan gaplarga o‘zingiz yuklamalar qo‘ying. Ularning gapdagi o‘rnini va vazifasini tushuntiring. Uslubiy jihatdan qanday qo‘shimcha ma’no berayotganligiga diqqat qiling.” kabi o‘ziga xos shartlar va 362-mashqda yozuv qoidalari nazarga olingan holda “*-mi, -chi, -a, -ya, -ku, -ham, -u (-yu) -da, -oq, -yoq, -ki (-kim), axir, hatto, nahotki, -gina (-kina, -qina), faqat, naq, na* yuklamalari ishtirokida gaplar tuzing, ularni imlo qoidalariga rioya qilib yozing” kabi shartlar qo‘yilgan.

Xullas, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim tizimida foydalaniladigan darslik dastur bilan muvofiq tuzilgan. Undagi nazariy fikrlar asosli. Biroq mashqlar tarkibini yanada boyitish bugungi kun uchun o‘ta muhim deb o‘ylaymiz. Qolaversa, dars mashg‘ulotlarini o‘tish jarayonida o‘qituvchidan izlanish, ijodkorlik, yuqori saviyadagi bilim talab etiladi.

Yuklamalar mavzusini o‘qitishda darsni videodars va audio topshiriqlar asosida tashkil etish mumkin.

Video darslardan foydalanish

Bugung kunda texnologiyalar rivojlanishi fan va ta’lim sohasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Axborotlarning tez tarqalishi va ko‘ligi izlanuvchilardan tezkor jarayonni talab etmoqda. Shu bois ham dars jarayonlarida elektron vositalardan, Internet tarmoqlaridan foydalanish tobora ta’lim sohasiga chuqur kirib

⁴⁹ Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. II bosqich Akademik litseylar talabalari uchun darslik. –Toshkent: Ilm Ziyo, 2013. –B 404-405.

bormoqda. Video darslar ham shular jumlasidandir. Bunda o'rganuchi vaqtni va xarajatlarni tejash imkoniga ega bo'ladi, chunki u vaqt sarf qilib qayergadir bormagan, bunga xarajat ham ketkazmagan holatda sifatli ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi. Unda vaqtning ham qulayligi e'tiborga molik, chunki istalgan vatda, istalgan mavzu yuzasidan video darslar orqali shu mavzuni o'zlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Bu jarayon o'rganuvchidan o'z ustida mustaqil ishlashni ham talab etadi.

Aynan ta'lim jarayonida undan o'rni bilan foydalanish ham foydadan holi bo'lmaydi, albatta. Ayniqsa, viseo darslar boshqa o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, bu ham o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. Chunki har kuni ularga dars o'tayotgan o'qituvchi tomonidan tayyorlangan video dars ularda qiziqish uyg'otmasligi mumkin.

Video darslar namoyish etilganidan so'ng o'quvchilar mavzu yuzasidan 60% axborotga ega bo'ladilar. Tushunarsiz o'rinlarini, mavjud savollarni esa o'qituvchining o'zi tushuntirib o'tishi lozim, lekin bundan oldin natijani aniqlash maqsadida o'quvchilarning bilimi tekshirib ko'rilishi kerak.

Biz The First Innovative Education Symposium in Uzbekistan (O'zbekistondagi birinchi innovatsion ta'lim simpoziumi) da ishtirok etish jarayonida maktablar bilan universitetlar orasida ko'rik yasash maqsadida videodarslardan foydalanish g'yasini ishlab chiqdik. Bunga ko'ra universitet talabalari tomonidan video darslar tashkillashtiriladi va ular maktablarga taqdim etiladi. Maktabdagi ta'lim jarayoni davomida o'qituvchilar darslar orasida ulardan foydalanib turadilar. Bu jarayon talabalarni o'z ustida ishlashga, o'quvchilarning ham bilim olishida samara berishiga yordam beradi deb umid qilamiz.

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim
Vazirligi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek
tiliva adabiyotini o‘qitish” fakulteti talabasi
Jo‘rayeva Layloning*

**“Yuklamalar va ularning uslubiy
xususiyatlari” mavzusida**

OCHIQ DARS ISHLANMASI

TOSHKENT – 2018

Mavzu	Yuklamalar va ularning uslubiy xususiyatlari
--------------	---

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Dars vaqti: 80 daqiqa	O'quvchilar soni –26 ta
Dars shakli:	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan nazariy va amaliy mashg'ulot.
Nazariy mashg'ulot rejasi:	<p style="text-align: center;">Yuklamalar va ularning uslubiy xususiyatlari</p> <p style="text-align: center;">1.Yuklamalarning yordamchi so'z turkumi sifatidagi vazifasi.</p> <p style="text-align: center;">2. Yuklamalarning ma'noviy turlari.</p> <p style="text-align: center;">3.Yuklamalarning uslubiy xususiyatlari.</p>
Darsning maqsadi:	<p>Ta'limiy:O'quvchining mavzuga oid ko'nikmalarini hosil qilish, yuklamalarni nutq jarayonida to'g'ri va o'rinli qo'llay olish malakalarini shakllantirish, nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.</p> <p>Tarbiyaviy: Insonning eng yaxshi fazilatlar sohibi bo'lib yetishishida, mustaqil, erkin shaxs sifatida shakllanishida, o'z-o'zini tarbiyalashida ona tilining, badiiy asarlarning rolini anglash, o'quvchilarni kitobxonlikka</p>

	<p>jalb qilish.</p> <p>Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarda Vatanga muhabbat, tabiat va insonni ulug‘lash, insoniy mehr-muhabbatni asrashga o‘rgatish. Og‘zaki nutqini rivojlantirish.</p>
<ul style="list-style-type: none"> ● Pedagogik vazifalar: ● Yuklamalar mavzusi bilan o‘quvchilarni tanishtirish; ● Mustaqil fikrlashga va ijodiy matn tuzishga o‘rgatish; ● Yuklamalarning uslubiy xususiyatlarini o‘quvchilarga tushuntirish; 	<ul style="list-style-type: none"> ● O‘quvchi faoliyati natijalari: ● Yuklamalar mavzusi yuzasidan bilimlarni mustahkamlash uchun misollar tuzish; ● Yuklamalar qatnashgan gaplar asosida matn tuzish; ● Yuklamalarni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalari ustida ishlash.
Ta’lim berish usullari	<p>Dars SMS (Sahnali, munozarali suhbat) “T texnologiyasi”, “Klaster”, “Test lotto”, “SMS varaqasi”.</p> <p>“Zanjir o‘yini”. Guruhlarda ishlash.</p>
Ta’lim berish shakllari	Individual va kichik guruhlarda ishlash.
Ta’lim berish vositalari	Darslik, tarqatma materiallar, kompyuter, qo‘shimcha adabiyotlar .
Ta’lim berish sharoiti	Ko‘rgazmali jihozlar mavjud, texnik jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat: savol-javob, ijodiy yondashuv.

1.2.Darsning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	<p>Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.</p> <p>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi, taqdimot tayyorlaydi.</p>	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	<p>1.1. O'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzuga ko'prik yasaydi. Mavzu va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi.</p> <p>1.2. Mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi. Kun hikmati e'lon qilinadi.</p> <p>1.3. O'quvchilarni kichik guruhlarda ishlash texnikasi qoidalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.4. O'tilgan mavzu bo'yicha tuzilgan tarqatma materiallardan foydalanib o'quvchilarning bilimi mustahkamlanadi.</p> <p>1.5. Ishchi guruhlarning o'quv topshiriqlarini bajarishi e'lon qilinadi.</p>	<p>Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>Savollar bilan murojaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'ladilar.</p> <p>O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar.</p> <p>O'quvchilar berilgan muammoli savol jadvalini to'ldirishadi</p> <p>O'quvchilar berilgan savollarga javob</p>

	1.6. O'quvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	beradilar
2. Asosiy bosqich (25 daqiqa)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha mashg'ulot rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi.</p> <p>2.2. Taqdimotni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy ma'lumotni tushuntirib beradi.</p> <p>2.3. O'quvchilar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.</p> <p>2.4. Slayd taqdimot orqali topshiriqlar beriladi. Ularda berilgan topshiriqlarni o'quvchilar kichik guruhlarda yoki individual tarzda bajaradilar.</p> <p>2.5. Yuklamalarning barcha turlariga o'quvchilar misollar topadilar.</p>	<p>Jadvalining ustunini to'ldiradilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, muhim joylarini o'z daftarlariga qayd etadilar.</p>
3. Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	<p>3.1. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.</p> <p>3.2. Mavzu bo'yicha o'quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, faol o'quvchilar baholanadi.</p> <p>3.2. Uyga vazifa istalgan badiiy asardan parcha olib undagi yordamchi so'zlarni aniqlab kelish.</p>	<p>Savollar beradilar</p> <p>Topshiriqni yozib oladilar.</p>

Mavzu: Yuklamalar va ularning uslubiy xususiyatlari.

Yuklamalar va ularning uslubiy xususiyatlari

1. Yuklamalarning yordamchi soʻz turkumi sifatidagi vazifasi.
2. Yuklamalarning maʼnoviy turlari.
3. Yuklamalarning uslubiy xususiyatlari.

Darsning maqsadi:

Taʼlimiy: Oʻquvchining mavzuga oid koʻnikmalarini hosil qilish, yuklamalarni nutq jarayonida toʻgʻri va oʻrinli qoʻllay olish malakalarini shakllantirish, nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy: Insonning eng yaxshi fazilatlar sohibi boʻlib yetishishida, mustaqil, erkin shaxs sifatida shakllanishida, oʻz-oʻzini tarbiyalashida ona tilining, badiiy asarlarning rolini anglash, oʻquvchilarni kitobxonlikka jalb qilish.

Rivojlantiruvchi: Oʻquvchilarda Vatanga muhabbat, tabiat va insonni ulugʻlash, insoniy mehr-muhabbatni asrashga oʻrgatish. Ogʻzaki nutqini rivojlantirish.

Kun hikmati

Ilm oʻrgan, u sening yoshlik patingda toʻgʻri yurishingni taʼminlaydi. Katta boʻlganingda buyuk shaxsga aylanishingda asosiy sabablardan boʻladi.

(Bobolarimizning oʻgitlaridan)

Mavzu:
Ko'makchilar va ularning uslubiy xususiyatlari

Kun hikmati

**Of Good a man teaches you at least a
latter with pain,
Hundred King's treasures be not enough
to pay him.**
Alisher Navoi.



Ta'limiy:

- **Ta'limiy:** O'quvchining mavzuga oid ko'nikmalarini hosil qilish, yuklamalarni nutq jarayonida to'g'ri va o'rinli qo'llay olish malakalarini shakllantirish, nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.



Tarbiyaviy

↓

Tarbiyaviy: Insonning eng yaxshi fazilatlar sohibi bo'lib yetishishida, mustaqil, erkin shaxs sifatida shakllanishida, o'z-o'zini tarbiyalashida ona tilining, badiiy asarlarning rolini anglash, o'quvchilarni kitobxonlikka jalb qilish.



Rivojlantiruvchi:

↓

- **Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarda Vatanga muhabbat, tabiat va insonni ulug'lash, insoniy mehr-muhabbatni asrashga o'rgatish. Og'zaki nutqini rivojlantirish.


KOMPETENSIYAVIY MAQSAD

▶ **Lingvistik, umummadaniy savodxonlikni oshirish.**



Dars jihozlari

**Komputer va proyektor
Dars ishlanma va taqdimot**



► Yangi Mavzu bayoni



Yuklamalar ning ma'no turlari.	So'roq va taajub	Kuchaytiruv va ta'kid	Ayiruv- chegarabov	Gumon yuklamasi	Inkor yuklamasi
Yuklamalar	-mi, -chi, -a, (-ya)	-ku, -u, (-yu), -da, -oq, (-yoq), ham, hatto	-gina, (-kina, qina), faqat	-dir	na...na

1-guruh.
Yuklama gap tarkibidan olib tashlansa gap mazmunida qanday o'zgarish yuz beradi?

2-guruh
Boshqa qo'shimchalar bilan omonimlik hosil qiluvchi yuklamalarni ayting

3-guruh
Nima uchun qo'shimcha yuklamalar ham so'z turkumlari tarkibida o'rganiladi diysiz?

“Zakat” metodi

Test - LOTTO
O'tkazish tartibi:
Guruh a'zolari kelishib, ikki taxminiy kalitni qog'ozga qayd etib, o'qituvchiga topshiradi. Slayd orqali testga qarab, o'z taxminiy javoblarini to'g'ri yoki noto'g'rligini bilib olishadi. Test-lotto g'oliblariga rag'bat kartochkasi beriladi.

1. Bog'lovchi vazifasida qo'llaniluvchi yuklamani toping
A) bilan B) hatto
C) ham D) nihoyat

2. Quyidagilardan qaysi yuklamalar o'zi bog'lanayotgan so'zga qo'shib yoziladi?
A) -chi **B) -kina**
C) -da D) -yu

3. Ayiruv-chegaralov yuklamasini toping.
A) faqat B) -chi
C) hatto D) -dir

QUIYIDA BERILGAN BO'SH JADVALLARNI YUKLAMANING MA'NO TURLARI BILAN TO'LDIRING

BAHOLASH



Uyga vazifa

Istalgan badliiy asardan parcha olish va unda qatnashga yordamchi so'z turkumlarini aniqlab kelish.



Xulosa

O'zbek tilshunosligida yordamchi birliklarning grammatik tabiati, lisoniy xususiyatlari bo'yicha O.Azizov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedova, Sh.Shahobiddinova, Sh.Iskandarova, D.Nabiyeva, Sh.Rahmatullayev, U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Shoabdurahmonov, E.Qilichov, F.Kamol, G.A.Abdurahmonov va boshqalarning tadqiqotlarida, shu bilan birga, til hodisalarini ta'lim tizimida o'rgatish usullariga qaratilgan o'qituvchilar uchun chiqarilgan N.Bekova, A.G'ulomov, B.Qobilovalarning metodik qo'llanmalari, S.Majidova, D.Muqumova, D.Rahmonova, D.Yo'ldashevalarning maqolalarida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari ishimizning muhim jihatlaridan biri bu yordamchi birliklarning o'zbek tili ta'limi jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida o'qitilishidir. Bu soha bo'yicha S.Adilova, Sh.Yusupova, N.Ahmedova, M.Abdullayeva, U.Begimqulova, A.Abdudodirov, A.Pardayev, M.Ochilov va boshqalarning tadqiqot ishlarida va o'quv qo'llanmalarida ko'rishimiz mumkin. Ulardan foydalangan holda darslarni tashkil etish mavzuning tushunarlik darajasini va samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida, xususan, o'zbek tili va adabiyoti ta'limi jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi fanni o'qitishning muhim omillaridan sanaladi. Bu jarayonda elektron resurslarning ham ahamiyati katta. Elektron axborot-ta'lim – resursi o'rganish va ta'lim berish uchun qulay tarzda shakllantirilgan, ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan, turli yoshdagi va ta'lim olish darajasidagi o'quvchi va o'qituvchilarga mo'ljallangan, ma'lum bir fanni o'rganish uchun mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan elektron axborot manbalari majmuasidir. Bu manbani o'zbek tili va adabiyoti ta'limi jarayonida rivojlantirish va amalda tatbiq etish ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin, chunki mamlakatda va jahonda bo'layotgan kundalik yangiliklarni, xabarlarini internet tarmoqlari orqali bilib olamiz. Bundan tashqari fanga oid ma'lumotlarni, turli elektron darsliklarni, masofaviy darslarni ham aynan internet orqali amalga

oshiramiz. Ta'lim jarayonida ham internet xizmatlaridan to'g'ri foydalana bilishimiz lozim, bu o'quvchilarning dunyoqarashi va bilimining oshishida yordam beradi. Faqat bu jarayonda ehtiyotkorlik va to'g'ri yo'naltira bilish muhim ahamiyatga ega.

Akademik litseyning II bosqichida Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida "Ko'makchilar va ularning uslubiy xususiyatlari" mavzusini o'tishda axborot texnologiyalari vositalaridan to'g'ri va o'rinli foydalana bilish o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini zamonaviy talablarga mos va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Dars jarayonida slayd taqdimotlarida foydalanish, videodarslar namoyish qilish, topshiriqlarni audio shaklda berish, matnlarning audiovariantini shakllantirish o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishning ortishiga sabab bo'ladi. Lekin shu bilan birga jarayonni tashkil etishda o'qituvchidan ehtiyotkorlik va e'tiborlilik talab etiladi, chunki zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nutqiga, ularning atrofdagilar bilan munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilar orasidagi jonli muloqotni saqlab turishi kerak.

Yordamchi so'zlarni o'qitishda Hozirgi o'zbek tili darsligida ma'lumotlar o'quvchining yoshiga intellektual salohiyatiga muvofiq ravishda keltirilgan va mashqalarning murakkablik darajasi va me'yori ham yetarlicha. Mavzuni tushuntirish va uni mustahkamlash uchun axborotlar mavjud, lekin uni tushuntirishda va mustahkamlashda o'qituvchidan biroz o'zgacha yondoshuv ham talab etiladi. Masalan, darslikda berilgan mashqalar eletron tarzda programmalashtirilsa, o'quvchilar uni telefon daturlari orqali ham bajarishlari mumkin bo'ladi. Darslikda berilgan ko'makchilarga oid 343-mashqda berilgan gaplardagi ko'makchilar bilan almashtirib ko'chirish sharti qo'yilgan. Agar ushbu mashqni eletron programmalashtiradigan bo'lsak, undagi mashqlar ketma-ketlikda chiqadi va agar o'quvchi birinchi mashqani bajara olsa, ikkinchi mashqaa o'tadi. Shu tartibda jarayon davom ettiriladi. Barchasiga to'g'ri javob topa olgan o'quvchilar oxirgi mashqqacha yetib boradilar, o'rtada xatolikka yo'l qo'yganlar esa, qaytadan boshlashga majbur bo'ladilar. Qayta boshlash paytida qilingan xatoni tuzatadilar, bu esa o'quvchining shu xatoni to'g'rilashiga va qilgan xatosini eslab qolishiga olib keladi.

Mashqlarning bunday tarzda bajarilishi o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, lekin bu tarzda mashqlarni ko'p qo'llab bo'lmaydi. Chunki ular o'quvchilarni darsdan chalg'ishig olib kelishi mumkin. Ammo darslar va mashqlar orasi qo'llanishi o'quvchilarda qiziqishning ortishiga olib keladi.

O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi ona tili va adbiyot darslari samaradorligini oshirishga, o'quvchilarni axborot texnologiyalaridan to'g'ri va unumli foydalana olishga va ularni dars jarayoniga qiziqitira olishga, eng muhimi sifatli ta'lim olishiga ko'maklashadi.

Atamalarning o‘zbekcha-inglizcha lug‘ati

O‘zbek tili	Uzbek language
O‘zbek adabiyoti	Uzbek literature
Ta’lim	Education
Axborot	Information
Kommunikatsiya	Communication
Texnologiya	Technology
Innovatsiya	Innovation
Elektron resurs	Electronic resource
Internet	Internet
Masofaviy ta’lim	Distance education
Multimediya	Multimedia
Taqdimot	Presentation
Video dars	Video lesson
Audio matn	Audio text
Audio topshiriq	Audio task
Yordamchi so‘zlar	Auxiliary words
Bog‘lovchi	Conjunction
Yuklama	Particle
Ko‘makchi	Helper

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimini darslik bilan ta’minlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori (1998-yil 5-yanvar № 4)//Ta’lim taraqqiyoti. 1998. №1.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” / Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq nashriyoti-matbaa konserni. 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Talim to‘g‘risida”gi qonuni (1997-yil 29-avgustda qabul qilingan) / Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyoti-matbaa konserni. 1997.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi // Xalq so‘zi. 2017-yil 8-fevral 28-son.
5. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Karimov I. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: 2011.
7. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
8. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
9. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
10. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
11. Азизов О. Тилшуносликка кириш. –Ташкент: Ўқитувчи, 1996.
12. Abdullayeva M. O‘zbek tili vadabiyotini o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2017.

13. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2009.
14. Adilova S. O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish . –Toshkent: TDPU, 2006.
15. Ahmedova N. O‘zbek tili o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. – Toshkent: Navro‘z, 2016.
16. Allamberganova M., Qidirniyazov A. Uzluksiz ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari // Uzluksiz ta’lim. – 2014. N4.
17. Begimqulova U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan. 2007.
18. Bekova N. Interfaol usullar- dars samaradorligining asosiy omili. Usuli qo‘llanma. –Toshkent: Muharrir, 2010.
19. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
20. Majidova S. Yordamchi so‘zlar mavzusini mustahkamlashda Alisher Navoiy asarlaridan foydalanish // Til va adabiyot ta’limi. 2015-yil, 1-son. –B 16-18.
21. Mixridinova M.T. Ta’limda axborot texnologiyalari: Ma’ruza matnlari. – Toshkent: TATU, 2010.
22. Muqumova D. Ko‘makchilar mavzusini mustahkamlash // Til va adabiyot ta’limi. 2016-yil, 2-son. –B 25-27.
23. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Тошкент: Шарқ, 2001.
24. Nurmonov A, Sobirov A, Qosimova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. II bosqich Akademik litseylar talabalari uchun darslik. –Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
25. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2010.

26. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бакалавр – ўзбек филологияси ихтисослиги учун қўлланма.– Бухоро: 2005.
27. Rahmonova D. Ko‘makchilarning ma‘no turlari va ularning qo‘llanilishi // Til va adabiyot ta‘limi. 2015-yil, 12-son. –В 10-12.
28. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili (darslik). –Toshkent: Universitet, 2006.
29. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: Fan va Texnologiya, 2009. - B.310.
30. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992
31. Taylaqov N.I., Usmonov . M.S. Uzluksiz ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati // Uzluksiz ta‘lim. - 2013. 5-son. – В 67-70.
32. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Фонетика, лексикология, морфология. Абдурахмонов Ғ. А. нингумумий таҳрири остида. –Тошкент: Фан, 1966.
33. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили. Камол Ф. таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1957.
34. Йўлдошева Д. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари. –Тошкент: Фан, 2006.
35. Yusupova Sh., G‘oziyeva O. Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – Toshkent: Bayoz, 2013.
36. Yo‘ldosheva D. Yordamchi so‘zlar mavzusini o‘rganish // Til va adabiyot ta‘limi. 2012-yil, 12-son. –В 14-18.
37. Ғуломов А. Она тили дарсларида ўқув-билув фаолиятини активлаштириш. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Тошкент: Ўқитувчи, 1987.

38. Гуломов А. Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулотлари. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

39. Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтларининг филология факультетлари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

40.www.Lex.uz

41.www.ziyonet.uz

42.www.bimm.uz